

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Tabiiy fanlar fakul`teti

«Geografiya o'qitish metodikasi» kafedrasи

**5110500 - Geografiya o'qitish metodikasi bakalavr ta'lif yo'nalishi
4-b kurs talabasi Elmurodov Yunus Ramazon o`g`lining**

**«O`zbekiston tabiiy geografiyasi kursida qizilqum tabiiy
geografik o`lkasini o`rganish»**

mavzusida bakalavr

**BITIRUV MALAKAVIY
IShi**

Ilmiy rahbar:

katta o'qitivchi Iskenderov A.

Kafedra mudiri :

p.f.n., dots. Gaipova R.

NUKUS - 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I– O'ZBEKISTONNING O'RTA OSIYODAGI GEOGRAFIK BOB.	
JOYLASHISHIGA TA'RIF.....	6
I.1. Geografik o'rni, chegaralari, maydoni va umumiyl tavsifi.....	6
I.2. O'rta osiyo hududining geografik o'rganilishi.....	13
I.3. O'zbekistonning relef va orografiyasi.....	21
II-BOB QIZILQUM TABIIY GEOGRAFIK O'LKASINING TABIIY BOYLIKЛАRIDAN FOYDALANISH VA O'ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI KURSIDA O`RGANISH.....	26
II.1. Qizilqum tabiiy geografik o'lkasining geografik joylashishi	26
II.2. O`zbekiston tabiiy geografiyasi kursida Qizilqum tabiiy geografik o'lkasini o`rganish.....	38
Xulosa.....	55
Adabiyotlar.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji: Turon tekisligidagi eng katta cho`llardan biri bo`lgan Qizilqum asosan Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. Lekin Qizilqum okrugiga Qizilqum cho`lining O`zbekiston hududida joylashgan qismi kiradi.

Qizilqum okrugi shimoli-g`arbda Quyi Amudaryo okrugi bilan, janubi-sharqda Quyi Zarafshon okrugi bilan, sharqda esa Toshkent-Mirzacho`l okrugi bilan chegaralanadi. Okrugning janubi-g`arbiy Turkmaniston, shimoli-sharqi Qozog`iston bilan bo`lgan davlat chegarasiga to`g`ri keladi.

Qizilqum janubi-sharqdan shimoli-g`arbga qarab pasayib boradi. Uning o`rtacha mutloq balandligi 200—300 m bo`lsa, janubi-sharqda 350—400 m, shimoli-g`arbda esa 90—100 m ga tushib qoladi.

Qizilqum okrugida, ayniqsa, paleozoy qoldiq toglarida oltin, slyuda, feruza, aobest, boksit, simob, grafit, volfram, talk, granit, yashma, island shpati kabi qazilma boyliklar, tekislik qismida esa gaz, neft`, uran, oltingugurt konlari mavjud.

Qizilqum okrugida foydali qazilmalar qazib olinayotgan va qazishga tavsiya qilingan konlarni o`zlashtirish asosida oltin, uran, qurilish xom-ashyolari, keyinchalik mis, boksit, strontsiy konlarini o`zlashtirish aoosida Zarafshon, Uchquduq, Tomdibuloq, Qo`kpatos ishlab chiqarish tarmoqlari, granit, oltin, bo`yoqbop minerallar, qurilish xom-ashyolarini o`zlashtirish. negizida Tasqazg`on ishlab chiqarish shoxobchasi, tabiiy gazlarni o`zlashtirish negizida esa Gazli ishlab chiqarish tarmog`i vujudga kelgan.

«...Barchaga ma`lum oddiy bir xaqiqatni aniq bilib olishimiz kerak- bundan buyon O`zbekiston Ekologik harakati yangi sifat bosqichiga ko`tariladi, yuqori deputatlik minbaridan turib atrof muhitni muhofaza qilish va nazorat etish, insonni va mamlakatimiz aholisini ekologik xafvli va kushli o`zgarishlardan muhofaza qilish uchun katta mufaqqiyotlarni qo`lg`a kiritadi. »¹

«...Bugun zamon o`zgarmoqda, uning talabi, oldimizga qo`yayotgan

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ Toshkent: «O`zbekiston», 2010.-80 b.

vazifalari tobora ortib bormoqda. Mana shunday murakkab sharoitda «sen-menga tegma, men- senga tegmayman» degan kayfiyat bilan ishlashning vaqtি o`tdi. Biz «vaziyat yomon, vaziyat og`ir» deb bahona qidirishga o`rganib qolganmiz. Lekin shu vaziyatni kim o`zgartiradi, kim izga soladi, degan savolni, keling o`zimizga beraylik. »²

Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti: Qizilqum tabiiy geografik o`lkasi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Qizilqum okrugidagi eng qadimiylar quruqlikka aylangan qismi bu uning markaziy qismidagi platolardan ko`tarilib turgan paleozoy qoldiq tog`laridir. Bu tog`lar juda ham emirilib ketgan bo`lib, mutloq balandliklari 922 m dan oshmaydi. Bu tog`larning eng muhimlari Quljuqtog` (Irlir cho`qqisi 764 m), etimtog` (568 m), Tomditog` (Otog` cho`qqisi 922 m), Ovminzatog` (635 m), Quljuqtog` (785 m), Qozaxtog` (394 m), Sulton Uvays tog`i (Ashitog` cho`qqisi 473 m). Shu sababli bu qoldiq toglar deyarli kenglik bo`ylab yo`nalib paleozoy erasining kristalli slanetslari, kvartsli slanetslari va ohaktoshlaridan tashkil topgan. Ular orasida esa granit, diorit, granodiorit va boshqa otqindi jinslar ham uchraydi.

- Qizilqum tabiiy geografik o`lkasi hududida atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, ekologik vaziyat eng yomon mintaqasi va shaharlarda muhit holatini tubdan yaxshilashga erishish, aholi salomatligi uchun o`ta xavfli moddalar miqdorini yo`l qo`yiladigan darajaga tushirishni ta`minlash;

-Tabiiy resurslarning iste`molini barcha bo`g`inarida, ehtiyyot kilib, tejab, sanoatning kam chiqindili texnologiyasini joriy etib, chiqindisiz kompleks ishlab chiqarishga o`tish;

- tabiiy muhitning holati va ifloslanishini ekologik nazorat ostiga olib, kuzatishning yagona avtomatlashgan tartibini yaratish;

- tabiat unsurlari barcha urlarining tabiiy xususiyatlari va rang–barangligini o`z xolicha saqlashga erishish;

- tabiiy yodgorliklarni hisobga olish va ularning, o`z holicha saqlashga

² Mirziyoev Sh.M. “Tanjidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundali qoidasi bo`lishi kerak” Toshkent: «O’zbekiston», 2017, -52b

erishish;

- aholi orasida, ayniqsa, ta`lim muassasalarida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ta`lim -tarbiyani kuchaytirish;

- tabiatni ifloslanishidan kelib chiqayotgan salbiy oqibatla-rini, ayniqsa, kishilarning salomatligiga ta`sirini chuqur o`rganib, uning oldini olish choralarini zudlik bilanishlab chiqish;

Tanlangan mavzuning ishlanganlik darajasi: O'zbekiston tabiiy geografiyasini yaxlit va uning ayrim qismlarini o'rganishda hamda tabiiy geografik rayonlashtirishda N. L. Korjenevskiy, E. M. Murzaev, V. M. Chetirkin, L. N. Babushkin, N. A. Qog'ay, N. D. Dolimov, M. Qoriev, M. Umarov, S. Nishonov, L. Alibekov, A. Abilqosimov, A. Rafiqov, P. G'ulomov, Sh. Zokirov, Yu. Sultonov kabi olimlarning qilgan ishlari muhim axamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishining metodi va metodologiyasi: Ushbu bitiruv malakaviy ishida asosan kameral, statistik, kartografik, matematik va shakoza metodlardan foydalanildi.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida ko'pgina adabiyotlardan shu jumladan davlatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov asarlaridan, mahalliy olimlarning mehnatlaridan keng turda foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy jixatdan yangilik darajasi, bu ishda iqlim sharoit va iqlim o`zgarishini o'rganilishiga ta`rif berilgan.

I-BOB. O'ZBEKISTONNING O`RTA OSIYODAGI GEOGRAFIK JOYLASHISHIGA TA`RIF

I.1. GEOGRAFIK O'RNI, CHEGARALARI, MAYDONI VA UMUMIY TAVSIFI

O`rta Osiyo Yevrosiyo materigining bir qismi bo`lib, o`zining geomorfologik tuzilishi jihatidan boshqa o`lkalardan farq qiladi. O`rta Osiyo chegarasining umumiyligi 9950 km atrofida, shundan 8650 km quruqlik orqali, qolgani esa suv orqali o`tadi. Suv orqali o`tadigan chegarasi Kaspiy dengizi sharqiy qirg`og`iga to`g`ri keladi.

O`rta Osiyoning g`arbiy chegarasi Kaspiy dengizining janubi-sharqiy chekkasidagi Astrobod qo`ltig`idan boshlanib, dengizning sharqiy qirg`og`i bo`ylab Mang`ishloq qo`ltig`iga qadar davom etadi. Shimoli-g`arbiy chegarasi Mang`istovning shimoliy etaklari, Dong`iztov chinki, Shogiray platosining g`arbiy qismi, Cho`chka, Mug`ojar tog`larining suvayirg`ichi va Ural-To`rg`ay daryolari suvayirg`ichi bo`ylab Bredi shahrigacha davom etadi. G`arbiy chegarasining umumiyligi uzunligi taxminan 3750 km. Shundan 1300 km qismi Kaspiy dengizi qirg`og`iga to`g`ri keladi. O`rta Osiyoning shimoliy chegarasi Qozog`iston past tog`liklarining eng shimoliy chekkasi yoki G`arbiy Sibir tekisligi bilan tutashgan 200 metrli gorizontal orqali Semipalatinsk shahriga qadar cho`ziladi. Bredi shahridan boshlangan shimoliy chegara Semipalatinsk shahridan so`ng janubi-sharqiy tomon Char vodiysi va Kokpekti shahri orqali Zaysan ko`liga, undan Irtish o`zani bo`ylab Burchum qishlog`iga yetmasdan tugaydi. Shimoliy chegaraning umumiyligi uzunligi taxminan 2150 km ni tashkil etadi. O`rta Osiyoning sharqiy va janubiy chegaralari deyarli tog`larning suvayirg`ichi qismlaridan o`tadi. Sharqiy chegarasi Qora Irtish daryosining chap sohilidagi Seriktovidan boshlanadi. Seriktovidan boshlangan sharqiy chegara Saur, Sharqiy Torbog`atay, Urnashar, Jamo, Maylitov, Jung`oriya Olatovi tizmalarining suvayirg`ich qismi bo`ylab o`tib, Ko`kko`l dovonigacha janubi-g`arbiy tomonga yo`naladi. Umuman sharqiy chegara yo`nalishlarini keskin o`zgartirib to Pomir tog` tizimining janubi sharqiy

chekka qismidagi Beik dovoniga qadar quyidagi tog` tizmalarining (Boroxoro, Irben-Xabarga, Norat, Xoliqtog`, G`alaba, Xon-Tangri tog` tuguni, Ko`kshaalatov, Sariko`l) suvayirg`ichlari orqali o`tadi. O`lka sharqiy chegarasining umumiy uzunligi 2650 km ni tashkil etadi.

Beik dovonidan boshlangan janubiy chegara, asosan, janubi-g`arbiy va g`arb tomonga yo`nalib, Kaspiy dengizining janubi-sharqiy chekka qismidagi Astrobod qo`ltig`iga borib tutashadi. Chegara mazkur yo`nalishda quyidagi tog` tizmalarining (Hindikush, Paropamiz, Jahon, Nishapur, Saroy, Elburs va boshqalar) eng baland qismlari orqali o`tadi. O`rta Osiyoning shimoliy chekka nuqtasi Ayrитov ($53^{\circ}50'$ shimoliy kenglik, $68^{\circ}30'$ sharqiy uzunlik), janubiy chekka nuqtasi Safedko`x tizmasidagi Besha qishlog`i ($34^{\circ}30'$ shimoliy kenglik, $63^{\circ}45'$ sharqiy uzunlik). Shimoldan janubga 2650 km ga cho`zilgan. O`lkaning g`arbiy chekka nuqtasi Mang`istov yarim orolining Tubqarag`ay burni ($50^{\circ}15'$ shimoliy kenglik, $44^{\circ}37'$ sharqiy uzunlik), sharqiy chekka nuqtasi $47^{\circ}44'$ shimoliy kenglik va $86^{\circ}46'$ sharqiy uzunlikda joylashgan. O`rta Osiyoning g`arbiy va sharqiy chekka nuqtalari oralig`idagi masofa taxminan 2800 km ni tashkil qiladi.

O`rta Osiyoning maydoni taxminan 3 mln. 450 ming km² dir.

Mazkur o`lka katta maydonni egallaganligi sababli uning geomorfologik tuzilishi turlichadir. Uning hududida dengiz sathidan 7690 m balandga ko`tarilgan Tirichmir cho`qqisi bilan birga dengiz sathidan 132 m pastda joylashgan Qoragiyo botig`i mavjud. O`lkaning markaziy va g`arbiy qismlarida qumli cho`llar bilan band tekisliklar va pasttekisliklar, sharqiy va janubiy qismlarida doimiy qor va muzliklar bilan qoplangan bahaybat baland tog`lar joylashgan.

O`lkaning o`ziga xos tabiiy xususiyatlari quydagilardan iborat:

1. O`rta Osiyo juda katta ichki o`lkadir. U Yevroсиyo materigining markazida subtropik mintaqaning cho`l, chala cho`l va dasht zonalarida, subtropik iqlimi O`rta dengiz bo`yi mamlakatlarinikidan farq qiladi, chunki, O`rta Osiyo okean va ochiq dengizlardan juda uzoq, iliq Hind okeaniga yaqin tursa ham o`rtada baland Ximoloy-Paropomiz tog`lari bo`lgani uchun uning ta'siridan baxramand emas, uning iliq nam havo massalari yetib kelmaydi. Aksincha ancha olisda

joylashgan Shimoliy muz okeani quruq va sovuq havo massalari O`rta Osiyo shimolidan tabiiy to`sinq baland tog`lar bo`lmaganligi uchun ham bemalol kirib keladi. Xuddi shu sababli ham Atlantika okeani va O`rta dengiz ham o`lka tabiatiga ancha kuchli ta'sir ko`rsatadi.

2. O`rta Osiyo hududi ichki o`lka bo`lganligidan tipik kontenental iqlim o`lkalar qatoriga kiradi. Uning asosiy qismi mo`tadil, janubiy qismi suptropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Mo`tadil mintaqadagi hududi qurg`oqligi, qishning ancha sovuqligi, suptropikdagisi esa yozning quruqligi, issiqligi qishning esa nisbatan iliqligi bilan ajralib turadi. O`lkada asosan chala cho`l, cho`l, voha va tog` landshaftlari hukmdordir. Iqlimda o`ziga xos keskinliklar mavjud. Cho`llarda yog`in miqdori 70-80 mm dan tog`larda 1000 mm gacha boradi. Qishda o`kaning shimoli-sharqiy qismida 50° li sovuqlar, yozda janubda 50° li jazirama issiqlar kuzatiladi.

3. Turkiston hududi berk havzadan ya'ni «oqimsiz oblastdan» iborat. Bu o`lkada daryolarning birortasi ham ochiq dengizlarga yetib borolmaydi va ular bilan bog`lanmaydi, bu daryolar o`lka ichidagi ko`llarga quyiladi yoki chala cho`l va cho`llarda qurib tugab qoladi. Demak O`rta Osiyo ko`llari va tekisliklari eroziya bazislardir. O`lkaning ayrim qismlari har xil balandlikda bir qancha ichki eroziya bazislari ega Bular Kaspiy (- 25 m), Orol (37 m), Balxash (340 m), Issiqlik (1607,6 m), Labnor (780 m).

4. O`rta Osiyo o`lkasining yana muhim xususiyatlaridan biri uning yer yuzasining o`ziga xosligidir. O`lkaning hududi kelib chiqishi va yoshiga ko`ra murakkab relyefga ega bo`lib, u katta tekislik va pastliklardan (ayrim qismlari dengiz yuzasidan pastda joylashgan. Kaspiy bo`yida 25 m Qoragiyo (Botir) botig`i -132 m, Sarihamish botig`i -54 m) plato va qirlardan, adirlar va doimiy qor va muzliklar bilan qoplanib yotgan baland (6000-7000 m dan baland) tog`lardan iborat. O`rta Osiyo hududi tekislik va tog`lar bir tekisda joylashgan emas. Janubiy shimoli-sharqni tog`lar ishg`ol qilgan bo`lsa, ulardan g`arbda, shimoli-g`arbda va shimolda pasttekislik, plato va qirlar joylashgan va ular o`lka maydonining 80% ni tashkil etadi. Tog` sistemalar o`zlarining uzun tarmoqlari bilan O`rta Osiyoning

tekislik qismiga yorib kirib, uning tabiiy sharoitini shakllanishida muhim rol o`ynaydilar. Hindikush, Paropomiz va boshqa o`lka janubidagi tog`lar orografik to`sinq rolini o`ynab, O`rta Osiyoni tipik suptropik iqlimiga ega bo`lgan janubiy Osiyoning ichki qismlaridan ajratib turadi. O`lkaning shimoli va shimoli-g`arbi tekisliklardan iborat bo`lganligi uchun g`arbdan nam iliq shamollar, shimaldan sovuq quruq shamollar bemalol kirib kela oladi.

5. O`lka o`ziga xos gorizontal tabiiy zonalarning mavjudligi va ularga mos keladigan balandlik mintaqalarning mavjudligi bilan ajrilib turadi.

6. O`lka tektonik aktiv va kuchli zilzila rayoni tog` relefining yoshligi bilan xarakterlanadi.

O`rta Osiyoning geologik tuzilishi proterazoydan to to`rtlamchi davrgacha bo`lgan vaqtning cho`kindi, magmatik va metomorfik tog` jinslari majmui qatnashgan.

Proterozoy va paleozoy tog` jinslari burmalangan va ko`p sonli yoriqlari bilan parchalanib yuborilgan.

O`rta Osiyoni tog`li hududlarida tekislik qismidagi qoldiq tog`larda bu tog` jinslari yer yuzasiga chiqadi. Turon plitasining tekisliklarda va tog`lar orasidagi botiqlarda esa katta chuqurliklarda yotadilar va ustidan mezazoy va kaynozoy uvoq tog` jinslari majmuasi bilan qoplanganlar.

Proterozoy yotqiziqlari O`rta Osiyoda Hisor tog` tizmasining janubiy-g`arbiy tarmoqlarda, Markaziy Qizilqum, Qozog`iston burmali o`lkasida ajratilgan. Bu yotqiziqlar slanetslar, gneyslar, pragneyslardan va h.k tashkil topgan.

Paleozoy gruppasi yotqiziqlari asosan antiqlinoriylarning yadrolari tarqalgan bo`lib, unga kiruvchi hamma davr yotqiziqlaridan tashkil topgan. Ular asosan slanetslardan, ohaktoshlardan, konglameratlaf qumtoshlar, alevolitlardan iborat.

Mezazoy gruppasi yotqiziqlari tog` massivlarini o`rab turadi va asosan konglameratlar, qumtoshlar, gillar, alevritlar, ohaktoshlar va tosh tuzlaridan iborat. Kaynazoy yotqiziqlari O`rta Osiyoda keng tarqalgan. Paleogen yotqiziqlari qumtosh, gil, alevrolit ohaktosh, mergellardan tashkil topgan va tekisliklarda keng tarqalgan.

Neogen yotqiziqlari ham keng tarqalgan bo`lib, asosan qumtoshlar, qumlar, gillar, alevrolitlar, ohaktoshlar, mergellardan iborat bo`lib, ulardan gips va rakushka qo`shilmalari ham uchraydi.

To`rtlamchi davr yotqiziqlari kelib chiqishiga ko`ra kontinental, allyuvial-prolyuvial, prolyuvial va dellyuvial bo`lib, litologik tuzilishi va qatlamining qalinligi bir xil emasligi bilan ajralib turadi.

O`zbekiston Gretsiya, Yugoslaviya, Italiya davlatlari bilan bir kenglikda turadi. O`zbekiston hududi mustaqil iqlim mintaqasiga janubiy va subtropik iqlim mintaqasiga to'g'ri keladi. Respublika maydoni 448,9 ming km.kv. bo`lib, maydoni jihatdan MDH davlatlari o`rtasida 4, dunyoda 56-o'rinda turadi.

O`zbekiston O`rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Uning xududining asosiy qismi Amudaryo bilan Sirdaryo orasida bo`lib, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida o`rnashgan. O`zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli-sharqida, Orol dengizi qirg'og'ida bo`lib, $45^{\circ} 31'$ shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi esa Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida bo`lib, $37^{\circ} 11'$ shimoliy kenglikka, tug'ri keladi. Respublikamizning eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida $56^{\circ} 00'$ sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa O`zbekiston bilan Qirg'iziston chegarasida, Uzgan shahri yaqinida bo`lib, $73^{\circ} 10'$ sharqiy uzoqlikdadir. O`zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan eng janubiy nuqtalari orasidagi masofa 925 km, eng g'arbiy nuqtasi bilan eng sharqiy nuqtalari orasidagi masofa esa 1400 km.

O`zbekiston janubi-sharqda Tojikiston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan, janubi-g'arbda esa Turkmaniston bilan chegaradosh. Janubda O`zbekiston tog'gina Surxon-Sherobod vodiysida Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Bu yerda Afg'oniston bilan O`zbekiston chegarasi Amudaryo orqali o'tadi.

O`zbekiston maydoni 448,9 ming kv. km bo`lib Norvegiya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlar hududidan katta. O`zbekiston Belgiya, Gollandiya va Daniya kabi davlatlarning yer maydonlarini qo'shib hisoblasak ham ulardan 4 marta kattadir. Respublikamiz hududi Shveytsariya

davlati hududidan 10 marta ziyyotdir.

O'zbekiston geografik o'rniaga ko'ra juda qulay. Chunki uning hududi Turkistonning markazidagi tabiiy sharoiti qulay va tabiiy boyliklarga serob bo'lgan yerkarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning ko'p qismining tekislikdan iborat bo'lishi hamda serumum voxalarning — Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Suxondaryo, Quyi Amudaryoning mavjudligi respublika iqtisodiyotining rivojlanishiga qulay sharoit yaratib bergen.

O'zbekiston O'rta dengiz atrofidagi mamlakatlar bilan deyarli bir geografik kenglikda joylashgan. O'rta dengiz atrofidagi mamlakatlar subtropikka xos landshaft bilan tavsiflanadi. Lekin O'zbekiston iliq okean va dengizlardan uzoqda, materik ichkarisida joylashganligi tufayli tabiiy sharoiti jihatidan O'rta dengiz atrofidagi davlatlardan butunlay farq qiladi. Chunki O'zbekiston hududining shimoliy qismi ochiq bo'lib, qishda shimoldan va shimoli-sharqdan esuvchi sovuq, quruq havo oqimi bermalol ichki qismlarigacha etib keladi.

O'zbekistonning tabiiy geografik joylashgan o'rni ancha qulayliklarga egadir. Masalan, 1) Respublikaning O'rta Osiyo markazida joylashganligi, chunki shimoldan janubga yoki g'arbdan sharqqa boradigan asosiy magistral yo'llar O'zbekistondan o'tishi Respublikaning iqtisodiy taraqqiyotiga qulay ta'sir ko'rsatadi. 2) qulay relef sharoiti, qulay iqlim-tuproq resurslariga egaligi hamda sug'orish suv manbalariga boyligi. 3) O'rta Osiyodagi 9 ta davlatlardan tashqaridaligi. 4) O'zbekistonni markazda joylashuvi qo'shni respublikalar bilan xilma-xil ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirishda, respublikalararo hududiy ishlab chiqarish komplekslarini yaratishda, respublikalarning tutash hududlarida joylashgan turli resurslardan birgalashib foydalanishda katta imkoniyatlar ochib beradi.

Bu qulayliklarni yanada yaxshilash maqsadida Buyuk Ipak yo'lini tiklashda O'zbekiston katta ishlarni amalga oshirmoqda. Masalan, Toshkent-Andijon-Osh-Qashg'ar yo'li barpo qilinmoqda, bunda O'zbekiston faol qatnashmoqda.

Turkmanistondan, Kaspiy dengizi orqali Gruziya, Ozarbayjon, Qora dengiz orqali yevropaga chiqish sohasida ham O'zbekistonning xizmat xarakteri ortmoqda.

3. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar jamiyat taraqqiyotida eng muhim moddiy sharoitlardan biri bo'lib, O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlantirish va joylashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Qachonki O'zbekiston haqiqiy mustaqillikka ega bo'lgandan keyin tabiiy resurslarni izlash, o'rghanish va ulardan oqilona foydalanish Respublika xo'jaligini har tomonlama rivojlantirish uchun katta va keng istiqbollar ochib berdi.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti jarayoni davrida tabiatga ta'sir ortib bormoqda. Bunday jarayonda O'zbekistonda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ulardan tejab-tergab foydalanish va kelajak-avlodlar manfaatlarini ham ko'zlab ish yuritishni taqozo etadi. Tekshirishlar va hayot shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tabiati kishilarining yashashi, Respublikada ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish hamda kelajak istiqboli uchun juda qulaydir.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgani va uning bir qismi bo'lganligidan O'rta Osiyoda uchraydigan hamma tabiiy komponentlar O'zbekistonda uchraydi. Shu bilan birga ularni xususiyatlari, hajmi bo'yicha har xildir. Buni biz Respublikaning tabiiy resurslarini o'rghanayotganimizda ko'rshimiz mumkin.

O'zbekiston maydoni jihatdan MDH 4 o'rinda yoki 2 % hududni egallab, aholisini soni jihatdan 7 % ortiqligi tashkil qiladi (25 mln kishi). O'zbekiston oltin, mis ishlab chiqarishda MDHda 3-o'rinda turadi. O'zbekistonda oltin gaz, mis, volfram, molibden, uran boyliklari bo'yicha jahonda 10 liderlar qatoriga kiradi. O'zbekiston zaxirasida Mendeleev davriy sistemasida uchraydigan deyarli hamma elementlar uchraydi. Bu jarayon O'zbekiston kelajakda buyuk rivojlangan davlatga aylanishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonning bunday imkoniyatlari - O'zbekistoning tarixiy xo'jaligini xususiyati, iqtisodiy geografik joylashgan o'rnni qulayligi, boy va xilma-xil tabiiy resurslarga ega bo'lishi, mehnat resurslariga boy va yuqori malakali

mutaxassislarni mavjudligi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini ustunligi bilan bog'liqdir.

I.2. O`RTA OSIYO HUDUDINING GEOGRAFIK O`RGANILISHI

O`rta Osiyo, jumladan, O`rta Osiyo hududi, tabiatи haqida dastlabki, ilmiy jihatdan mukammal geografik ma'lumotlar jahonga mashhur bo`lgan IX-XII asrlarda yashagan O`rta Osiyolik qomuschi olimlar tomonidan yozib qoldirilgan. Ular 780-yil Xivada tug`ilib, 850-yili Bag`donna vafot etgan yurtdoshimiz Muhammad Ibn Muso al Xorazmiy, Axmad Farg`oniy (IX asr boshida tug`ilib, 861-yili vafot etgan), Abu Abdullo Muhammad ibn al Termizi (861-yili vafot etgan), Abu Nasr Farobi (873 yili O`rta Osiyo shahri yaqinidagi FAROB (UTRO) da tug`ilib, 950 yili Damshqda vafot etgan), Abu Bakr Narshaxiy (899-959 yillar), Abu Rayxon Beruniy (973-1048 yillar), Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yillar) Maxmud Qoshg`ariy (IX asr) va boshqalardir.

O`rta Osiyoda geografiya fanining rivojlanishida dunyoga mashhur aTog`li matematik astronom va geograf Muhammad ibn Xorazmiyning xizmatlari buyukdir. Shu tufayli X.X.Xasanov IX- X asrlarni hamrab olgan va O`rta Osiyo geografik fanining tug`ilishi davrining «Muhammad Muso Xorazimiyl-Balxiy geografiya maktabi» davri deb juda to`g`ri atagan.

Muso Xorazmiy tabiiy fanlarga oid juda ko`p asarlar yaratgan. Ular ichida eng muhimi geografik va kartografik asari bu «Yerning tasviri» («Surat al-Ars») kitobidir. Bu asar «Xorazimiyl geografiyasi» nomini olib, unda R.U.Raximbekovning ma'lumotiga ko`ra yer yuzasidagi 525 ta geografik punkt, jumladan 200 dan ortik tog`larning tafsiloti, mamlakatlar, okeanlar, dengizlar, daryolar, ko`llar haqida ma'lumotlar bo`lib, geografik obyektlarning aniq koordinatalari berilgan. Muso Xorazmiy meridian yoyining bir gradusi 111,8 km. ga teng ekanligini (haqiqatdan 111,0 km) ham isbotlab berdiki, bu keyingi kartografik ishlar uchun (xarita va atlaslar tuzish uchun) asos bo`ldi.

O`rta Osiyo tabiiy geografiyasining rivojiga katta hissa qo`shgan Farg`onalik buyuk astronom, sayyoh geografik Ahmad Farg`oniyidir. U ko`p umrini Bag`doddagi «Donolar uyida» o`tkazgan va ijod qilgan. Ahmad Farg`oniyning asarlari ichida geografiyaga oid eng muhim kitobi «Astronomiyaga kirish» («Madxal an-nujum») bo`lib, unda yer kurrasining sharsimonligi dalillari bilan isbotlangan. U astronomiyaga geodeziyaga va geografiyaga oid o`lchov asboblarini yaratish bilan ham shug`ullangan. Ahmad Farg`oniy R.U.Raximbekovning ma'lumotiga ko`ra daryo suvini o`lchaydigan asbob («miqyosi jadad») ni ixtiro qilgan. Nihoyat «Astronomiyaga kirish» deb nom olgan qomuschi olim Abu Nasr Farobiyning xizmati nihoyatda kattadir. U matematik, astronom, buyuk faylasuf, musiqashunos, tabib bo`lishi bilan bir qatorda geograf sifatida ham jahonga mashhur allomadir.

Farobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarga tegishli 160 dan ortiq ishlar muallifidir. Bular ichida «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» degan asari diqqatga sazavordir. R.U.Raximbekovning ma'lumotiga ko`ra «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» asarida Farobiy tabiat haqidagi fan boshqa barcha ta'limiy fanlardan boy va ko`lami keng deb uqtirib, moddiy dunyoning to`rt «ildizi»- olov, havo, suv va yer mavjudligi haqida fikr yuritgan. Bu esa geografik qobiq unsurlari hisoblangan atmosfera,gidrosfera, litosferaga ancha mos keladi.

R.U.Raximbekovning ma'lumotiga ko`ra Farobiy sayyoh sifatida O`rta Osiyo o`lkasini kezib chiqib, ular haqida tabiiy geografik ma'lumotlar bergan.

Movarounnahr tabiat xususan iqlimi, suvlari, o`simplik va hayvonot olami haqida, shuningdek, Buxoro tarixi haqida mukammal ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Yana bir O`rta Osiyolik alloma Abu Bakr Narshaxiyidir. U o`zining «Buxoro tarixi» asarida Buxoro shahri topografiyasi, tarixi, aholisi va xo`jaligi, Amudaryo va Zarafshon daryolari haqida ancha keng va haqiqatga juda yaqin ma'lumotlar beradi. U Amudaryo O`rta Osiyodagi eng katta daryo bo`lib, o`ta loyqaligini Zarafshon (Xaramkom), Baykend (hozirgi Yakkatut temir yo`l bekti yaqinidagi ko`xna shahar) gacha oqib, so`ngra suvi ozayib to`qayzorlar orqali Qorako`lga borib quyilishini, u ko`lda baliq va qushlar ko`pligini qayd qiladi.

O`rta Osiyo hududida tabiiy-geografik tasavvurlar ravnaqida buyuk qomuschi olim Abu Rayhon Beruniyning xizmatlari benihoyat kattadir.

U astronomiya, fizika, matematika, geografiya, iqlimshunoslik, etnografiya, botanika, tarix, adabiyot va boshqa fanlarning rivojiga katta hissa qo`shgan hamda shu sohalarga bag`ishlangan 150 dan ortiq asar yozgan allomadir. Bular ichida bizgacha yetib kelganlari «Hindiston», «Kartografiya», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Osari boqiya», «At-Tafxim», «Saydona», «Qonuni Mas'udiy asarlaridir.

Beruniy «At-Tafxim» kitobining «yer kattaligini aniqlash bo`limida va «Qonuni Mas'udiy» hamda «Hindiston» kitoblarida yer shakli va o`lchami haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Beruniy bir gradus yer meridian yoyining uzunligini 110,275 km ga teng ekanligini aniqlagan. Hozirgi ma'lumotlarga ko`ra bir gradus meridian yoyining uzunligi 110,895 km, binobarin Beruniy yo`l qo`ygan xatosi faqat 620 m. Shu yo`l bilan u yer meridian aylanasining uzunligi 40183 km. ekanligini (hozirgi hisobda 40008,5 km) isbotlab berdi. Bu hol o`rta asr astronomiya fanining misli ko`rilmagan buyuk yutug`i edi.

Beruniy dunyoda birinchi bo`lib, quyosh yer atrofida emas balki yer quyosh atrofida aylanadi, deb N.Kopernikdan 550 yil oldin gelotsentrik nazariyaga asos solish bilan birga yer o`z o`qi atrofida g`arbdan sharqqa qarab aylanishini ham isbot etgan. O`zining «Kartografiya» va «Geodeziya» asarlarida joyning geografik koordinatalarini aniqlash usullarini yoritib, dunyodagi ba'zi shaharlarning jumladan, O`rta Osiyoning quyidagi shaharlari koordinatalarini ya'ni kengligi va uzoq ligini tavsiflagan: Toshkent kengligi 420 301, uzoqligi 890 101, Samarqand kengligi 400 01 , uzoqligi 880 211 . Hozirgi ma'lumotlarga ko`ra Toshkent 410 31 shimoliy kenglik bilan 690 001 sharqiy uzoqlikda joylashgan.

Beruniy «Saydona» («Dorivor o`suvchi dorivor o`simliklar hakida kitob») asarida O`rta Osiyo hududida o`suvchi dorivor o`simliklar geografiyasiga oid ma'lumotlar beradi.

Beruniyning tabiiy geogorafiya sohasidagi buyuk kashfiyotlaridan yana biri dunyoda birinchi bo`lib Martin Bexaymdan 500 yil ilgari 995 yili ilmiy globus yasaganligidir. Beruniy globusida meridian va paralellar mayjud bo`lib, ular yordamida geografik joylarning koordinatalarini aniq topish mumkin.

Beruniy O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi, xususan Qizilqum va Qoraqum tabiatni, geologik o`tmishi, daryolar migratsiyasi (tentirab oqishi), ayniqsa Turon paleogeografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. U «Geodeziya» asarida Orolning kelib chiqish tarixi, Kalif Uzboy Amudaryoning qadimiy o`zani ekanligi haqida qimmatli ma'lumotlarni yoritgan.

R.U.Raximbekovning (1982) yozishicha Beruniyning Qoraqum, Qizilqum paleogeografiyasi va Amudaryoning o`tmishi haqidagi ilmiy mulohazalaridan quyidagi muhim xulosalar kelib chiqadi: Amudaryo vodiysi Qizilqum va Qoraqum tabiatni ham geologik ham tarixiy o`tmishda doimo o`zgarishda, rivojlanishda bo`lib suvlik bilan quruqlik almashinilib turgan. Ushbu cho`llarda uchraydigan dengiz hayvonlarining qoldiqlari qadimda suv ostida bo`lganligini bildiradi. Bu o`zgarishlar yerning ichki va tashqi kuchlari ta'sirida sodir bo`lib, daryolarning tentirab oqishiga sabab bo`lgan. Qoraqumning ko`p qismi Amudaryoning qadimgi yotqiziqlardan tashkil topgan allyuvial tekislikdir. Bu fikrlar Beruniyning O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi va dinamik geologiyasi haqida juda teran ilimga ega ekanligidan dalolat beradi.

O`rta Osiyo geografiyasi taraqqiyotida o`z davrining ulkan tibbiyotchi olimi Abu Ali Ibn Sinoning xizmatlari katta, u tabiatshunos olim sifatida o`z asarlarida ulkan yirik relyef shakllari hisoblangan tekislik, botiq va tog`larning vujudga kelishida tashqi va ichki kuchlarning ta'siri mavjudligi haqida fikr yuritadi. Shuningdek u minerallarni toshlar, metallar, oltingugurtlar, yonuvchi jismlar va tuzlarda 4 guruhga ajratadi.

O`rta Osiyo tabiatni rivojiga o`z hissasini qo`shgan olimlardan yana biri Maxmud Qoshg`ariydir. U O`rta Osiyo o`lkasidagi ko`p yillik sayohati davomida to`plagan ma'lumotlarga asoslanib «Devonu lug`otit turk» asarini yaratadi. R.U.Raximbekovning ma'lumotiga ko`ra «Devonu lug`otit turk» asarining

geografik ahamiyati shundan iboratki, unda birinchidan dunyo xaritasining asl nusxasi berilgan. Ikkinchidan Yevrosiyo, Afrikadagi ko`plab geografik joy nomlari berilgan va izohlangan. Uchinchidan O`rta Osiyo va unga tutash hudularda yashovchi qabilalar geografiyasi bayon ettirilgan. To`rtinchidan geografik atamalar to`planib, unga keng izoh berilgan. Qizig`i shundaki, Maxmud Qoshg`ariyning xaritasida Oloy, O`rta Osiyo, Zarafshon, Farg`ona, Chotqol tog`lari, Qoraqum, Surhon-Vaxsh vodiylari o`z aksini topgan.

O`rta Osiyoda geografik bilimlar taraqqiy etgan Temuriylar davri ham alohida o`rin tutadi. Chunki Temuriylar davrida Movarounnahrda ilm-fan ravnaqiga alohida e'tibor berilib Astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot kabi fanlar sohasida bir qator olimlar ijod qildilar. Shulardan biri geograf olim Hofuzi Abrudir. U Amir Temur, so`ngra Shoxruh hukmronlik davrida saroy kotiblik xizmatida bo`lib, O`rta Osiyo o`lkasining ko`p qismini kezib chiqib dunyo xaritasini tuzadi.

Hofuzi Abru o`z asarlarida Movaraunnahr shaharlarining tarixi, aholisi va o`lka tabiatni, iqlimi, suvlari, o`simliklari haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Temuriylar davrida dunyo geografik ilmni rivojlantirishda ulkan hissa qo`shtiradi. Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Ulug`bek, Ali Qushchi, Zaxriddin Muhammad Bobur kabi buyuk allomalar yashaydi va ijod qiladi.

Afanisiy Nikitindan 30 yil ilgari Hindistonga borgan mashhur olim va sayyoh Abdurazzoq Samarqandiy, jumladan O`rta Osiyo tabiatini, xususan, Qizilqum va Zarafshon vodiysining tabiiy hodisalar, suvlari, o`simlik va hayvonot olami haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Dunyoga mashhur astronom, tabiatshunos olim, ma'rifatparvar shox Mirzo Ulug`bek O`rta Osiyo tabiiy geografiyasining rivojiga salmoqli hissa qo`shtiradi. U Samarqand shahrida «Fanlar akademiyasi» tashkil etib, unga o`z davrining mashhur olimlarini yig`di. Ular orasida Qozizoda Rumi, G`iyosiddin Jashid, Ali Qushchi kabi tabiat ilimining bilimdonlari bor edi.

Mirzo Ulug`bek Madrasa , Rasadxona qurdirish bilan birga, qator asarlar yozib qoldirdiki, ular ichida bizgacha yetib kelgan «Tarixi raba' ulus» va «Ziji

Ko`ragoniy» («Ulug`bek Zijiy»), ya'ni astronomik jadval kitobidir. «Zijiy Ko`ragoniy» astronomiyaga bag`ishlangan bo`lsada, unda qimmatbaho geografik ma'lumotlar mavjud. Asarda jahondagi shaharlarning, jumladan O`rta Osiyodagi bir qator shaharlarning koordinatalari berilgan.

«Ulug`bek akademiyasi» da yetishib chiqqan shogirlari ichida eng iste'dodlisi Ali Qushchidir. U o`z davrining Ptomeleyi hisoblanib Ulug`bek ishini davom ettirgan. Ali Qushchi Ulug`bek o`limidan keyin Eron, Turkiya kabi yurtlarda astronomiya, matematika, geografiyaga oid kuzatishlar olib borgan. U yer yoyining 10 uzunligini aniqlab, ekvator uzunligini o`lchagan, yerning harakati quyosh va oy tutilishi sabablarini ilmiy asosda isbotlab bergen.

O`rta Osiyoda geografiya fanining rivojiga juda katta hissa qo`shgan o`zbek geografiya fanining «Otaxoni» hisoblangan Temuriylar sulolasining yana bir vakili Zaxiriddin Muhammmad Boburdir.

Bobur tarixshunos, geograf, etnograf, mashhur shoir, olim adolatli shox bo`lgan. U o`zining bilgan, ko`rgan, kuzatgan boy ilmiy dalillari asosida shox geografik asar hisoblangan «Boburnoma» ni yozib qoldirdi. Bobur Farg`ona, Zarafshon vodiylarini, Toshkent vohasini bir necha bor kezib chiqdi, G`arbiy Tyanshan, O`rta Osiyo, Zarafshon, Oloy, Hisor tog`tizmalarida bo`lib, u yerdagi vodiylar, daralar, muzliklarni o`z ko`zi bilan ko`rdi, o`simlik va hayvonot dunyosi hayotini o`rgandi. Bobur hayotida o`zi ko`rgan va kechirgan geografik joylarni-cho`l, vodiy, voha, daryo, soy, adir, tog`larni, u yerda o`suvchi o`simlik, yashovchi hayvonlarni «Boburnoma» asarida mohirona badiiy ravishda tasvirlangan.

Bobur o`z asarida O`rta Osiyo, jumladan O`rta Osiyo relyefini, bo`lib turadigan zilzilalarini, iqlimini ilmiy ravishda bayon etish bilan birga geografiyada taqoslash usulidan mohirona foydalangan. U biror hududga ta'rif berayotganda geografik izchillikka katta e'tibor bergen. Masalan «Boburnoma» da Farg`ona vodiysining tavsifida avval uning O`rta Osiyoda tutgan o`rni , kattaligi, relyefi, foydali qazilmalari, iqlimi, suvlari, o`simlik va hayvonot dunyosiga ta'rif berib, so`ngra shaharlari, aholi yashaydigan joylari, ular orasidagi masofa, xo`jaligi, mashhur kishilari haqida ma'lumot beradi.

«Boburnoma» da O`rta Osiyo iqlimi haqida ham qimmatli ma'lumotlar yoritiladi. Asarlar Farg`ona viloyati beshinchi iqlimda joylashganligi, Farg`ona vodiysiga shamollar g`arbdan kelishligi, yog`inning kam tushishligi, atrofi tog`lar bilan o`ralganligi tufayli bu yerlarga nam havo massalarining kirib kelolmasligi bayon etiladi.

Bobur geografiyada taqqoslash uslubiga asos solganlaridan biridir. U «Boburnoma» da Samarcand va Qobul tabiatini, xususan iqlimini bir biriga taqqoslagan.

Bobur o`z davrining qomuschi olimi sifatida O`rta Osiyo tarixi, etnografiyası sohasida ham qiziqarli ma'lumotlar qoldirganligi bilan birga tilshunos sifatida ham mashhurdir. R.U.Raximbekovning yozishicha, «Boburnoma» o`zbek geografik terminologiyasi va toponimikasi jihatdan katta ilmiy xazinadir. Bu jihatdan «Boburnoma» ni «Devonu lug`otit turk» bilangina taqqoslash mumkin.

O`rta asr va Temuriylar sulolası davridagi mahalliy sayyoh va olimlarning merosini o`rganish, o`zligimizni endi taniy boshlagan bugungi kunlarda O`rta Osiyo tabiatı va tabiiy boyliklarini o`rganishda ularning xizmatları nihoyatda ulkan ekanligini bilishimizga imkon beradi.

XVI asrdan boshlab O`rta Osiyo o`lkasi bilan ruslar ham qiziqb, uning goegrafiyasini o`rganishga kirishdilar. Ularning asl maqsadi O`rta Osiyo tabiatini o`rganish niqobi ostida bu hududda joylashgan Xiva xonligi, Buxora amirligi va Qo`qon xonligining harbiy sirlari va qudratini bilish, qanday boyliklari hamda arzon xomashyolar mavjudligini aniqlash, oqibat natijada suqilib kirib, bosib olib mustamlakaga aylantirish edi. Bu maqsadga erishish uchun 1715-1717 yillarda Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi, asosan harbiylardan iborat bo`lgan ekspeditsiyani mahalliy xalqlardan Xo`ja Nafas boshlab keladi. Ekspeditsyaning asl maqsadi Xiva xonligining harbiy qudratini bilish edi. Ekspeditsiya ishtirokchilari yo`l-yo`lakay Uzboy o`zani, Ustyurt, Quyi Amudaryo tabiatini ham o`rgandilar.

1721-1725 yillari Floro Beneveni Rossiyaning Buxoro va Xivadagi elchisi sifatida xizmat qilib, asosan Xiva xonligi va Buxoro amirligining harbiy qudrati,

siyosiy, ijtimoiy ahvoli haqida ma'lumot to`playdi. Shuningdek, u Amudaryo qumliklardagi oltin va boshqa boyliklar to`g`risidagi ma'lumotlar yig`adi. Amudaryoning qadim Kaspiyga quyilganligi haqida xabar beradi.

1740-1743 yillari D.Gladishev va I.Muravinlar Xiva xonligining aholisi, siyosiy ahvoli, savdo munosabatlari haqida ma'lumot to`playdi hamda Orol dengizining qirg`oqlari va Sirdaryoning quyi qismi geografik xususiyatlarini o`rganadi.

Buxoro amirligiga asir tushgan rus ayg`oqchisi Filipp Yevremov 1774-1782 yillari Qoraqum, Qizilqum cho`llari, Zarafshon va Farg`ona vodiylarida bo`ladi. Bu davrda mahalliy xalqlar tilini, urf-odatlarini, hudud tabiatini, aholi tarixini chuqur o`rganadi va «9 yillik sayohat» («Devyatiletnee stranstvovaniya») asarida bu haqda to`liq ma'lumot beradi.

Qizilqum va Zarafshon vodiysining (Buxorodan tog`li kismigacha) tabiiy sharoitini o`rganishda 1841-1842 yillari R.F.Butenev boshchiligidagi Buxoro ekspeditsiyasining xizmati katta. Bu ekspeditsiya o`sha hududlarning geologik tuzilishini, yer usti tuzilishini o`rganadi, mahalliy xalqlar urf-odatlari haqida ma'lumotlar to`playdi.

Rossiya davlati XIX asrning ikkinchi yarmiga kelganda boy xomashyo manbalariga ega bo`lgan O`rta Osiyo o`lkasini bosib olish uchun yurish boshlaydi. Natijada shavqatsiz qirg`inlar hisobiga 1853 yili Qo`qon xonligiga qarashli Oqmachitni (hozirgi Qizil O`rdani), 1964 yili Chimkentni va nihoyat, 1865 yili 17 mayda xalqning qattiq qarshilagini yovuzlarcha bostirib Toshkentni qo`lga kiritadi. So`ngra asta-sekin O`rta Osiyo, jumladan O`rta Osiyo hududining boshqa qismlarini bosib oladi.

O`rta Osiyo hududi geologik tuzilishi va qazilma boyliklarini o`rganish uchun 1874 yili I.V.Mushketov boshchiligidagi ekspeditsiya uyushtirildi. Ekspeditsiya ishtirokchilari Sirdaryo havzasini, G`arbiy Tyanshanning tabiiy sharoitlarini o`rganib, u yerdagи tabiiy boyliklarni hisobga oladi.

Akademik V.A.Obruchev 1886- 1888 yillari Zarafshon vodiysining quyi qismi va Qizilqumning tabiiy sharoiti va boyliklarini tekshiradi, Amudaryoning qadimiy o`zani Uzboy haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

O`rta Osiyoning geolgik tuzilishi, geomorfologiyasi va qazilma boyliklarni o`rganishda K.K.Markov, I.P.Gerasimov, X.Abdullaev, I.Hamraboev, O.Akramxo`jaev, G.O.Mavlonov, V.I.Popov, Yu.A.Skvortsov, M.Mamatkulovlar va boshqalarning xizmatlari katta. O`rta Osiyo iqlimini o`rganishda L.N.Babushkin, V.A.Bugaev, V.O.Jorjio, F.A.Mo`minov, daryo va ko`llarni o`rganishda esa V.L.Shults, O.P.Sheglova, R.Alimov kabi olimlarning xizmati katta.

O`rta Osiyo yer osti suvlari, ularning xususiyatlari va miqdorini o`rganishishi bilan G.O.Mavlonov, M.A.Kenesaren, S.Sh.Mirzaev, N.Xojiboev kabi olimlar shug`ullanganlar. R.I.Abozin, K.Z.Zokirov, T.Z.Zoxidov, I.I.Granitov, D.M.Kashkarov, E.N.Karovin, A.I.Formozov, M.Orifxonova, S.N.Rijov, Genosov A.Z, A.Rasulov, X.Abdullaevlarning O`rta Osiyoning tuproq, o`simlik qoplamenti, hayvonot olamini har tomonlama o`rganishlarda xizmatlari katta. O`rta Osiyo tabiatini va tabiiy boyliklarni o`rganish tarixi bilan H.Hasanov, A.Azatyan, R.Raximbekov, R.Yugay, Z.N.Dontsova, I.Inog`omov kabi mutaxassislar shug`ullanganlar.

I.3. O'ZBEKISTONNING RELEFI VA OROGRAFIYASI

O'zbekistonning relefi o'zining geologik taraqqiyoti mobaynida murakkab jarayonlarni boshidan kechirgan. Shuning uchun uning relefi juda xilma-xildir.

Respublikaning sharqiy va janubi-sharqiy qismini O`rta Osiyoning eng baland tog'lari Tyanshan va Pomir-Oloy tizmalarining tarmoqlari qoplab olgan. Bu toqlar g'arb va shimoli-g'arb-tomon pasayib boradi, sharq va janubi-sharqda esa ularning balandligi dengiz sathidan 7495 m ga yetadi.

O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismi esa Turon tekisligining markaziy

qismi bilan band. Shunday qilib, O'zbekiston hududi yer usti tuzilishi jihatidan ikkita katta qismga, ya'ni tog'li va tekisliklarga bo'linadi. Bu qismlar o'z maydonlarining katta-kichikligi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining 70% ga yaqini tekislik, qolgan 30% qismini esa tog'lar egallaydi. Bu qismlarning chegaralari nihoyatda egri-bugri bo'lib, tog'larning ba'zi bir tizmalari tekislik qismining ichkarisiga surilib kirgan, ayrim joylarda tekislik ham tog' tizmalari orasiga qo'ltilq shaklida kirib qolgan.

O'zbekistonning tog'li qismi. O'zbekiston asosan tog' tizmalari va tog' oraliq botiqlaridan iboratdir.

T O G ' t i z m a l a r i . O'zbekistonning shimoli-sharqiy qismida G'arbiy Tyanshanning tog' tizmalari joylashgan. Bu tog' tizmalar biri ikkinchisiga yondosh holda shimoli-sharqdan janubi-g'arb tomonga cho'zilib ketgan. Ularning hammasi shimoli-sharqda Talas Olatoviga borib qadaladi. Talas Olatovi G'arbiy Tyanshanning baland tog'laridan biri bo'lib, uning eng baland cho'qqisi, dengiz sathidan 4488 m balandlikka ko'tarilgan va Manas nomini olgan. Bu tizma chuqur daryo vodiylari va tog' oraliq botiqlarini bir-biridan ajratib turadi.

G'arbiy Tyanshanning shimoliy tizmalaridan biri Ugom tog'lari deb atalib, bu tog'ining janubi-sharqiy yonbag'irlari O'zbekiston Respublikasiga qaraydi. Ugom tog'ining dengiz sathidan o'rtacha balandligi 3500 m, eng baland cho'qqisi esa 4229 m ga (Sayram cho'qqisi) yetadi. Ugom tog'i janubi-g'arb tomonga asta-sekin pasayib boradi. Ugom tog'ining janubi-g'arb qismida Qorjontog' tizmasi joylashgan. Uning o'rtacha balandligi 2000 m, eng baland cho'qqisi (Mingbuloq) 2834 m ga yetadi.

Ugom tog'iga yondosh holda Piskom tog' tizmasi cho'zilgan. Piskom tizma tog'ining dengiz sathidan o'rtacha balandligi 3000—3500 m, eng baland cho'qqisi 4299 m ga yetadi. Uning baland qismida doimiy qor va muzliklar tarqalgan.

G'arbiy Tyanshanning eng uzun va baland tog' tizmalaridan biri Chotqoldir. Chotqol tog' tizmasini O'zbekiston hududida Ohangaron daryo

vodiysi ikkiga bo'lgan. Bularning shimoliysi Arashon va Qizlnura, janubiysi esa Qurama tizma tog'lari deb ataladi.

Arashon va Qizlnura tog' tizmalari Ohangaron va Chotqol daryolarining suv ayirg'ichi hisoblanadi. Bu tizmalarning eng baland cho'qqisi dengiz sathidan 3893 m ga ko'tarilgan. Qizlnura tizmasining shimoliy qismida Katta va Kichik Chimyon cho'qqilari joylashgan. Ular dengiz sathidan 3277 va 2101 m balanddir.

Qurama tizma tog'inining o'rtacha balandligi 2500 m bo'lib, ayrim cho'qqilari 3769 m gacha etadi. Bu tizmaning janubi-g'arbida uncha baland bo'limgan Mug'ultog' joylashgan. Ohangaron daryosining boshlanish qismida Ohangaron platosi joylashgan. Ohangaron platosining o'rtacha balandligi dengiz sathidan 3000 m ay-rim joylari 3400 m ga ham ko'tarilgan.

O'zbekiston hududida sharqdan g'arbga cho'zilgan Turkiston tizma tog'inining g'arbiy tarmog'i va shimoliy yonbag'irlarining aksar qismi joylashgan. Bu tizmaning O'zbekiston hududidagi eng baland cho'qqisi SHakartog' bo'lib, uning balandligi 4033 m ga yetadi Tizma g'arb tomon pasaya boradi. Sangzor daryosining boshlanish qismida Turkiston tizmasi ikkiga bo'lingan. Uning janubiy qismi — Chumqortog' deb atalib, sharqdan g'arb tomonga qarab cho'zilib ketgan va balandligi 3194 m ga yetadi, shimoliy qismi—Molg'uzor esa shimoli-g'arb tomon cho'zilgan. Bu tizmaning suv ayirg'ich qismi juda qoyali bo'lib, eng baland joyi 2622 m. Molg'uzor tog'inining balandligi shimoli-g'arb tomon kamayib boradi, tog'ning umumiy kurinishi ham o'zgarib, qoyali chuqqilar o'rnini usti ancha tekis va silliq bo'lgan balandliklar egallaydi.

Molg'uzor tizmasining shimoli-g'arbiy davomi — Nurota tog'ini Sangzor daryosida hosil bo'lgan «Temurlang darvozasi» ajratib turadi. Nurota uncha baland bo'limgan ikkita tizmadan iborat. Buning shimoliysi Nurota tog' tizmasi deb atalib, uning balandligi 2169 metrgacha ko'tariladi («Hayot cho'qqisi»).

Nurota tog'inining janubiy tizmasi bir nechta balandliklardan — G'ubduntog', Qaroqchitog', Oqtog' va Qoratog'lardan iborat. Bularning balandligi

1150—2006 metr o’rtasida bo’lib, shimoliy Nurota tog’ining janubiy yon bag’irlaridan boshlanadigan daryo vodiylari ularni bir-biridan ajratib turadi.

Turkiston tizma tog’larining janubdagagi Zarafshon tizma tog’larining g’arbiy tarmoqlari Chaqilqalon va Qoratepa nomlari bilan ma’lum.


O’rta Osiyoning eng baland tog’lari Tyanshan va Pomir Oloy tizmalarining tarmoqlari O’zbekistonning sharqiy va Janubi – sharqiy qismini qoplab olgan. Bu tog’lar g’arb va shimoli g’arb tomon pasaiyb boradi, sharq va janubi-sharqda esa ularning balandligi dengiz sathidan 7495 m ga etadi. O’zbekistonning 71 % i tekislik, 29 % i tog’lardan iborat.

Tog’ oralig’i botiqlari. O’zbekistonda eng katta tog’ oralig’i botiqlari Toshkent – Mirzacho’l, Farg’ona, Sangzor – Nurota, Kitob - Shahrisabz botiqlari.

O’zbekistonning tekislik qismi relefi Qizilqum cho’li qoldiq tog’lar va berk botiqlardan iborat Sulton Uvays 473 m, Tomditog’ 922 m, Quljuqtog’ 874 m, Ovminzatog’ 639 m, Aristontog’ 693 m, Bo’kantog’ 764 m, berk botiqlardan Oyoqog’itma, Qoraxotin, Mingbulloq.

O’zbekistonning shimoli – g’arbiy qismida, Amudaryo etaklarida Amudaryo deltasi joylashgan. Qarshi cho’li, Zarafshon vodiysidagi Qarnob va Malik, Jom cho’llari tekislik qismining asosiy relef shakllari hisoblanadi.

1 – karta rasm. O’zbekistonning orografik chizmasi



Baratov P. O’zbekiston tabiiy geografiyasi. T. 1996

T i z m a l a r: 1— Talas olatovi, 2— Ugom, 3— Qorjontog’, 4— Piskom, 5— Ara-shon, 6— Qizilnura, 7— Qurama, 8— Mug’ultog’, 9— Molg’uzor, 10— Chumqortog’, 11 Nurota, 12— Gobduntog’, 13— Qoroqchitog’, 14— Oqtog’, 15— Qoratog’, 16 — Chaqilqalon. 17 Koratepa, 18— Ziyoviddin-Zirabuloq 19— Sumsar-Shertog’, 20— Osmontosh, 21— Beshnov, 22— Eshak Maydon. 23— Xontaxta, 24— Bobo Surxon, 25— Boysuntog’, 26— Ko’-xitang, 27— Bobotog’, 28— Quljuqtog’, 29— Ovminzatog’, 30— Tomditog’, 31— etimtog’ , 32— Bukantog’, 33— Sulton Vays.

Q i r l a r: 34— Qoplanqir, 35—Qorabovur. **B o t i q l a r:** I— Toshkent Mirzacho’l. P—Farg’ona, III— Sangzor-Nurota, IV — Zarafshon, V— Kitob-SHaxrisabz, VI— Sherobod-Surxondaryo, VII— Oyoqog’itma, VIII — Mingbuloq;, XI — Qoraxotin, .X— Asakaovdon, XI— Borsa-kelmas. XII— Sarihamish.

II -BOB. QIZILQUM TABIIY GEOGRAFIK O`LKASINING TABIIY BOYLIKLARIDAN FOYDALANISH VA O`ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI KURSIDA O`RGANISH

II.1. QIZILQUM TABIIY GEOGRAFIK O`LKASINING GEOGRAFIK JOYLASHISHI

Turon tekisligidagi eng katta cho`llardan biri bo`lgan Qizilqum asosan Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. Lekin Qizilqum okrugiga Qizilqum cho`lining O`zbekiston hududida joylashgan qismi kiradi.

Qizilqum okrugi shimoli-g`arbda Quyi Amudaryo okrugi bilan, janubi-sharqda Quyi Zarafshon okrugi bilan, sharqda esa Toshkent-Mirzacho`l okrugi bilan chegaralanadi. Okrugning janubi-g`arbi Turkmaniston, shimoli-sharqi Qozog`iston bilan bo`lgan davlat chegarasiga to`g`ri keladi.

Qizilqum janubi-sharqdan shimoli-g`arbga qarab pasayib boradi. Uning o`rtacha mutloq balandligi 200-300 m bo`lsa, janubi-sharqda 350-400 m, shimoli-g`arbda esa 90-100 m ga tushib qoladi.

Qizilqum okrugi yer usti tuzilishi jihatidan bir xil emas. Bu erda botiqlar, tekisliklar, yassi platolar va qoldiq tog`lar mavjud. Lekin uning ko`pchilik qismini mutloq balandligi 200 m gacha bo`lgan qumli tekisliklar ishg`ol qiladi. Tekisliklarning ko`pchilik qismini allyuvial sochilma qumlar ishg`ol qilib, asosan, eol rel`ef shakllari qum marzalari, do`ng qumlar, kamroq esa barxanlar mavjud. Qum marzalari ko`proq meridional yo`nalishga ega bo`lib, o`simliklar bilan mustahkamlangan. Ularning nisbiy balandliklari 15-20 m, ba`zan esa maksimal balandliklari 60-70 m gacha etadi. Qizilqumning markaziy qismlarida esa do`ng qumlar mavjud bo`lib, ular xam mustahkamlangan. Qizilqum okrugida barxanlar nisbatan kam bo`lib, ular aholi yashaydigan joylarda, quduqlar atrofida, Amudaryo sohillarida ko`proq joylashib, ularning xarakatga kelishi insonlarning xo`jalik faoliyati bilan bog`liq.

Qizilqum okrugida taqirlar kam bo`lib, ular marza qumlar orasidagi past

joylarda uchraydi. Taqirlar bahorda suv bilan qoplanib, yozga borib suv bug`lanib ketib, qurib usti qotib yorilib ketadi.

Qizilqum okrugining markaziy qismida bir necha berk botiqlar joylashgan. botiqlarning tagi qumdan iborat bo`lib, ustki qismi taqir yoki sho`rxoklardan iborat. Botiqlar Qizilqumning markaziy qismidagi qoldiq tog`lar orasida tektonik botiqlar mavjud. Bu botiqlarning eng kattalari Bo`kantog`ning janubida dengiz sathidan 12 m pastda joylashgan Mingbuloq, Yetimtog`ning janubi-shraqida joylashgan Mullali, Ovminzatog` bilan Qozoqtog` orasida joylashgan Qoraxotin, Quljuqtog`ning janubi-shraqida joylashgan Oyoqog`itma botiqlaridir. Bu botiqlarning xar birining bo`yi 40-50 km ga etadi.

Qizilqum okrugidagi eng qadimi quruqlikka aylangan qismi bu uning markaziy qismidagi platomardan ko`tarilib turgan paleozoy qoldiq tog`laridir. Bu tog`lar juda xam emirilib ketgan bo`lib, mutloq balandliklari 922 m dan oshmaydi. Bu tog`larning eng muhimlari Quljuqtog` (Irlir cho`qqisi 764 m), etimtog` (568 m), Tomditog` (Otog` cho`qqisi 922 m), Ovminzatog (635 m), Quljuqtog` (785 m), Qozoqtog` (394 m), Sulton Uvays tog`i (Ashitog` cho`qqisi 473 m). Shu sababli bu qoldiq tog`lar deyarli kenglik bo`ylab yo`nalib paleozoy erasining kristalli slanetslari, kvartsli slanetslari va oxaktoshlaridan tashkil topgan. Ular orasida esa granit, diorit, granodiorit va boshqa otqindi jinslar ham uchraydi.

Paleozoy qoldiq tog`lari keyinchalik asta-sekin emiriladi, emirilgan (nuragan) jinslar uning quyi qismiga tushib to`planadi, oqibatda tog`lar pasayadi. Natijada dengiz suvi o`sha emirilib, pasayib qolgan paleozoy tog`larini ham bosib oladi. Bu jarayon neogen davrigacha davom etadi, so`ngra Tetis dengizi chekinib Qizilqum quruqlikka aylanadi. Paleozoy qoldiq tog`lari etaklarida bo`r va paleogen davr platomari joylashib, asosan, Qumtosh, konglamerat, mergel`, gil, qum kabi jinslardan tashkil topgan.

Qizilqum okrugining qolgan tekislik qismi neogen va antropogen davrning allyuvial tekisliklaridan, asosan dengiz va Amudaryo hamda Sirdaryoning yotqiziqlaridan iborat, ustini esa qalinligi 10-12 m keladigan qumlar qoplab olgan.

Qizilqumning shimoliy qismi iqlimining qishda shakllanishida Sibir`

antitsiklonidan vujudga kelgan havo massasi muhim omil hisoblanadi. Bu havo massasi shimoli-sharqdan esib hudud haroratini pastga tushirib, quruq lekin ochiq, sovuq ob-havoni vujudga keltiradi. Shuningdek qishda bu joylarga shimoli-g`arbdan va g`arbdan keladigan tsiklon turli havo massasi xam ta`sir etib, shimoli-sharqdan esuvchi havo massasi bilan to`qnashadi. Natijada qish ob-havosining tez-tez o`zgarib ochiq ayozli ob-havo nam, nisbatan iliq ob-havo bilan almashib turadi. Ba`zi kunlari Sibir` antitsikloni bilan birga Qizilqum okrugining shimoliga Rossiya tekisligining janubi-sharqidan sovuq havo massasi ham etib kelgach, harorat pasayib, -35° gacha tushadi.

Qizilqum okrugida yoz uning xamma qismida deyarli bir xil bo`lib, quruq, ochiq, issiq. Ayniqsa, uning markaziy qismi yozda qizib ketib, iyul`ning o`rtacha harorati 28°-30°ga etadi. Nisbatan pastroq, iyul`ning 26°li izotermasi okrugning shimoli-g`arbiga to`g`ri keladi. Qolgan qismlarida esa iyul`ning o`rtacha harorati 26-28° atrofida o`zgaradi. Eng issiq 46° ga etadi.

Qizilqum okrugi O`zbekistonning qurg`oqchil qismlaridan biri. bo`lib, uning shimoli-g`arbida, Quyi Amudaryo okrugiga tutash qismlarida yillik yog`in miqdori 75-100 mm atrofida o`zgaradi. Yog`in miqdori okrugning janubi-sharqiy qismiga borgan sari ortib, 100-150 mm ga, qoldiq tog`lar va Nurota tog`lariga yakin qismlarida esa 200 mm ga etadi.

Qizilqum okrugida yog`in yil fasllari bo`yicha xam notekis taqsimlangan. yillik yog`inni 100% desak uning 48% bahorga 30% qishga, 19% kuzga, faqat 3% yozga to`g`ri keladi.

Qizilqumda yog`inning bir qismi qor holida yog`sada, u qalin bo`lmasdan (qalinligi 20 sm ga etadi) uzoq vaqt saqlanmaydi (yiliga o`rtacha 20 kun qor qoplami bo`ladi). Okrug hududining shimoliy qismida qor oktyabr`dan aprel` oyining oxirigacha, janubida esa noyabrning boshlaridan mart oyining oxirigacha bo`lishi kutiladi. Qor qoplami yupqa bo`lib, uzoq vaqt saqlanmaganligi tufayli mollarni qishda xam yaylovda boqiladi. Lekin ba`zan qishda haroratning tez-tez pasayib ketishi chorvachilikka ancha salbiy ta`sir etadi.

Qizilqum okrugida yil bo`yi shimoliy, shimoli-sharqiy va shimoli-g`arbiy

shamollar esib, tezligi o`rtacha sekundiga 3-4 m atrofida. Lekin qishda va bahorning boshlarida shimoli-sharqdan nisbatan kuchli shamollar esib turadi.

Qizilqum okrugi iqlimining quruqligi (yog`inning kamligi, yozgi haroratning yuqoriligi tufayli mumkin bo`lgan bug`lanishning ko`pligi) tufayli doimiy oquvchi maxalliy suvlari yuq. Uning janubi-g`arbiy qismidan esa tranzit Amudaryo okib o`tadi, xolos. Lekin bahorda qorlar eriganda, yomg`ir ko`proq yoqqanda Qizilqumning markaziy qismidagi past tog`larda vujudga kela-digan vaqtli soylardan suv oqib, so`ngra ularning suvi qurib qoladi.. Aksincha, Qizilqumda yer osti suvlari ancha ko`p. Okrugda grunt suvlari xamma qismida turon svitasi qumliklarida uchraydi. Bu tur yer osti suvi, asosan, yog`inlardan to`yinadi, lekin bug`lanish katta, binobarin, sho`r (minerallashish darajasi yuqori) bo`lib, to`g`ridan-to`g`ri ichish uchun sifatsiz. Rel`efi past yerlarda bu tur er osti suvlardan yaylovlarni suv bilan ta`minlashda foydalaniladi. Qalin barxan qumlari ostida taxminan 110 m chuqurliklarda chuchuk grunt suvi mavjud bo`lib, minerallashish darajasi 0,3 dan 1,02 g/l ga etadi. Markaziy Qizil-qumdagagi qoldiq tog`lar etaklaridagi prolyuvial yotqiziqlar orasida chuchuk grunt suvlarining katta miqdori mavjud.

Mezozoy davr yotqiziqlari va paleogen davr jinslari orasida bosimli artezian yer osti suvining katta zaxirasi mavjud. Bu tur suvlar nisbatan chuchuk bo`lib, ba`zi joylarda kovlanganda o`zi otilib chiqishi mumkin. Mingbuloq, Qoraxotin, Oyoqog`itma kabi botiqlarda burg`ilash paytida o`sha artezian suvlari o`zi otilib chiqqan. Har litr suvida minerallashish darajasi 1,0 grammdan, 3,0 grammgacha borishi mumkin.

Qizilqum okrugida yer osti suvining dinamik miqdori sekundiga $58-60 \text{ m}^3$ ni tashkil qilib, gidrogeologik rayonlar bo`yicha quyidagicha taqsimlangan: Markaziy Qizilqumda 11,0 m /sek Qizilqumning shimoli-sharqi va shimolida 4,0 m^3/sek Qizilqumning shimoli-g`arbida (Orol bo`yida) 43,6 m^3/sek

Qizilqum okrugining shimoli-g`arbida sur-qo`ng`ir tuproq tarqalgan. Nisbatan rel`efi pastroq bo`lgan erlarda esa taqir va taqirli tuproqlar uchraydi. Bunday tur tuproqlarda chirindi kam bo`lib, gumus miqdori 0,4-0,5% gacha

boradi.

Qizilqum okruti hududining 3-5 foiz maydonini o`simlik deyarli o`smanydigan qumlar egallagan. Qolgan 95-97 foiz maydoni u yoki bu darajada o`simliklar bilan qoplangan.

Qizilqum okrugi florasi cho`lga xos xususiyatlarga ega bo`lib, uzoq davom etgan jazirama quruq yoz sharoitiga moslashgan kserofit, psammofit va efemer turlidir. Okrug bahorda ko`k tusga kirib, efemer va efemeroi o`simliklari rang, qo`ng`rbosh, yalturbosh, lolaqizg`aldoq, lola, boyg`alcha, chuchmoma, kovrak kabilar bilan qoplanadi. Lekin yozning boshlanishi bilan efemer va efemeroi o`simliklari sarg`ayib qurib qoladi, so`ngra o`z vegetatsiyasini psammofit, kserofit tur o`simliklari davom ettiradi.

Okrugning mustahkamlashgan qumliklarida juzg`un, oq saksovul, quyonsuyaq qum akatsiyasi, qondim, urg`ochi (mayda) selin kabi o`simliklar o`sadi. Qizilqumnivg markaziy qismidagi sur qo`ng`ir tuproqlar tarqalgan qoldiq tog`larda va tog` etaklarida shuvoq, burgan, tereskan, toshburgan, saksovul o`sadi.

Okrugning sho`rxok-sho`rtob va sho`rxok-botqoq tuproqlar tarqalgan botiqlarida qora saksovul, yulg`un, baliqko`z, sarisazan, qorabaroq, potash va boshqa bir yillik sho`ralar uchraydi. Taqir va taqirli tuproqlar mavjud bo`lgan erlarda donasho`r, bir yillik sho`ralar o`sadi.

Okrug zoogeografik xususiyati jihatidan Turon provintsiyasining Qizilqum zoogeografik rayoniga mansubdir. Okrug hayvonot olami Turkiston cho`llariga xos bo`lgan vakillar bilan tavsiflanadi. Lekin okrugda taroq barmoqli qo`shoyoq, xo`jasavdogar kabi endemik vakillar mavjud.

Qizilqum okrugining ko`p qismini qumli-cho`llar tashkil etib, unda kemiruvchilardan ingichka oyoqli yumronqoziq, qum sichqoni, shalpangquloq, qo`shoyoqlar, toshbaqa, tipratikan kabilar yashaydi. Sudralib yuruvchilardan dumaloq boshli kaltakesak agama, echkemar, stsink gekkoni, o`kilon, qum burma iloni, efa iloni (charx ilon) yashaydi.

Qumli cho`llarda sut emizuvchilardan cho`l mushugi, jayron, xongul, sayg`oq (oq quyruq), bo`ri, tulki, quyon uchraydi. Xasharotlardan esa chayon,

qoraqurt, tarantul, falang, chigirtka bor.

Qizilqum okrugining Amudaryo sohilarida to`qayzorlar xam mavjud bo`lib, unda g`oz, o`rdak qirg`ovul, to`ng`iz kabi hayvonlar bor.

Qizilqum okrugida qushlardan xo`jasavdogar, yilqichi, tentakqush, so`fito`rg`ay, yo`rg`a tuvaloq, qum chumchug`i kabilar uchraydi.

Qizilqum okrugidagi Amudaryo sohillarida joylashgan to`qay landshafti va u erdag'i o`simlik hamda hayvonlarni (xongul, jayron, to`ng`iz, qirg`ovul, o`rdak g`oz va bosh.) muxofaza qilish uchun Qizilqum qo`riqxonasi tashkil etilgan.

Qizilqum okrugi tabiiy boyliklarga serob hudud xisoblanadi. Eng muhim boyligi mineral resurslari (oltin, uran, gaz, fosforit, korund, grafit)dir. Bundan tashqari okrugda iqlim, resurslari, yaylov-o`tloqlari, yer osti suvlari, mo`yna beruvchi hayvonlari xam mavjud bo`lib, ular yurt boyligidir.

Qizilqum okrugi o`z navbatida L.N.Babushkin, N.A.Kogay (1964) ning rayonlashtirish tizimi bo`yicha Sultonvays, Shimoliy Qizilqum, Bo`kan-Yetimtog`, Janubiy Qizilqum, Tomdi-Kuljiqtog` kabi tabiiy-geografik rayonlarga bo`linadi.

I. Sultonvays tabiiy-geografik rayoni shu nom bilan ataluvchi koldiq tog`ning va uning atrofidagi hududlarni o`z ichiga oladi. Sultonvays tog`i emirilgan va assimmetrik tuzilgan bo`lib, janubiy yon bag`riga nisbatan tik tog` Amudaryoning o`ng qirg`og`ida joylashib, kenglik bo`ylab 40-45 km ga cho`zilgan, o`rtacha kengligi 10-15 km, eng baland Ashitog` cho`qqisi 475 m ga etadi. Sultonvays tog`i g`arbga qarab pasayib bir-biridan ajralgan Shayh Jalil, Quyanchiq, Zangibobo, Jumurtog` kabi balandliklarni hosil qiladi. Iqlimi cho`lga xos xususiyatlar bilan tavsiflanib, skeletli sur-qo`ng`ir tuproq tarqalgan bo`lib, asosan shuvoq o`sadi.

II. Shimoliy Qizilqum tabiiy-geografik rayoni. Bu rayon Qizilqumning 42° shimoliy kenglikdan shimolda bo`lgan erlarini ya`ni Bo`kantog` va etimtog`larning shimoliy qismidagi hududlarni o`z ichiga olib, asosan, qum massivlaridan iborat. Rayon hududining ko`p qismini pliotsen eski to`rtlamchi davr platolarining emirilishidan (nurashidan) vujudga kelgan eol qumliklari,

xususan, qumlarning arı uyasimon marza, eol rel`ef shakllari egallaydi. Rayon Qizilqum okrugining eng sovuq (yanvarning o`rtacha harorati- $7,8^{\circ}$), vegetatsiyali kish 0 ga teng bo`lgan rayoni hisoblanadi. Yozi esa okrugdagi eng past haroratga ega bo`lib iyul`ning o`rtacha harorati $+29^{\circ}$ dir. Asosiy tuprog`i qumli tuproq bo`lib, unda oq saksovul va boshqa o`simliklar o`sib qizilqum tur eol qumli landshaft bilan tavsiflanadi. Shuningdek ba`zi sur qo`ng`ir tuproqlar tarqalgan erlarda efemer o`simliklar o`sadi. Rayonning g`arbiy qismida Okchadaryoning qadimiy del`ta tekisliklari mavjud bo`lib, u meridian bo`ylab 75-80 km ga cho`zilib, kengligi 6-7 km ga etadi. Bu erlar allyuvial yotqiziqlar bilan qoplanib, taqirlar, sho`rxoklar mavjud bo`lib, kora saksovul va boshqa o`simliklar o`sadi.

III. Bo`kan-Yetimtog` tabiiy-geografik rayoni. Rayon o`z ichiga Bo`kantog`, etimtog`, Oltintog` va Qoqpatos tog`larini hamda tog` oldi prolyuvial tekisliklarini oladi. Rayonning sharqdan g`arbga uzunligi 230-340 km. Rayonning asosiy qismini Bo`kantog` egallab bir qancha (Tubabergan, Bo`zdantog`) tog`lardan iborat bo`lib, eng baland cho`qqisi Irlir 764 m ga etadi. Bo`kantog`ning janubida esa Oltintog` (eng baland eri 522 m) joylashib u sharqda Qoqpatos balandligiga tutashib ketadi. Rayonning sharqida etimtog` joylashib, u etimtog` 1 va 2, Kiyiktog` va Toktintog` kabi past tog`lardan iborat bo`lib, eng baland eri 565 m ga etadi. Bu tog`lar paleozoy erasining har xil cho`kindi va otqindi jinslaridan iborat bo`lib, yalang hamda soylar bilan kesilgan. Tog`larning etagida shag`al va gipsdan tashkil topgan prolyuvial tekisliklar joylashgan.

Tog`larning janubiy tog` oldi mintaqasida esa tog` oldi tekisliklari, qum massivlari, berk tubi sho`rxoklardan iborat botiqlar joylashgan. Ularning eng muhim O`zbekistonning eng past - (12 m) eri bo`lgan Mingbuloq botig`idir.

Rayon iqlimi xususiyatlari jihatidan Shimoliy Qizilqum bilan Janubiy Qizilqum orasidagi o`tkinchi mintaqa hisoblanib, qish tog`larda mu`tadil xususiyatga ega bo`lsa, botiqlarda sovuq, yoz esa quruq va issiq. Iqlimning bunday xususiyatlari rayon tuproq va o`simlik qoplami xususiyatlariga ta`sir etgan.

Binobarin, rayon quyidagi landshaftlarga bo`linadi:

1. Bo`kantog`, Oltintog`, Yetimtog`, Kiyiktog` va Toktintog`larni o`z ichiga

olgan paleozoy negizli, shuvoq o'suvchi sur-qo'ng'ir tuproqli past tog`lar landshafti.

2. Sur-qo'ng'ir tuproqli shuvoq formatsiyasi mavjud bo`lgan tog` oldi prolyuvial tekisliklar landshafti.

3. Oq saksovullar o'suvchi past tog`lardagi eol qum landshafti.

4. Mezokaynazoy negizidan iborat bo`lgan sarisazanli sho`rxoklardan tashkil topgan berk botiqlar landshafti. Bu tur landshaft Mingbuloq botig`ini o`z ichiga oladi.

IV. Janubiy Qizilqum tabiiy-geografik rayoni.

Qizilqumning 42° shm kengligidan janubda joylashgan ikkita qum massivi

- Buzauboy va Yomonqumni o`z ichiga oladi. Yomonqum etimtog` bilan Tomditog` orasida joylashgan. Yomonqumning janubi va janubi-g`arbida esa Buzao`boy qum massivi o`rnashgan. Bu ikki qumlikda ham ari uyasisimon, marza qum rel`ef shakllari keng tarqalgan. Lekin Amudaryo sohillariga yaqinlashgach barxan qumliklari ham uchraydi.

Rayon Qizilqum okrugining qishi nisbatan iliq (yanvarning o`rtacha harorati $-4-4,8^{\circ}$), yozi esa issiq (iyul`ning o`rtacha harorati $+31^{\circ}$) va quruq bo`lgan qismi hisoblanib, harorati $+10^{\circ}$ dan yuqori bo`lgan davrdagi harorat yig`indisi 4850° etadi.

Rayon o`z navbatida quyidagi landshaftlarga bo`linadi:

1. Rayon hududining eng ko`p qismini ishg`ol qilgan oq saksovul o'suvchi qizilqum turli eol qum landshafti. Bu landshaft Yomonqum va Buzao`boy qumliklarini o`z ichiga oladi.

2. Efemer o'simliklari tarqalgan sur-qo'ng'ir tuproqli pliotsen eski to`rtlamchi davr platolar landshafti.

3. Amudaryo qayirlari va qirg`oklaridagi o'tloq-botqoq qayir allyuvial tuproqlarda o'suvchi to`qay va hamishzorlar bilan qoplangan del`ta hamda undagi qayirlar landshafti.

4. Amudaryoning sug`oriladigan o'tloq tuproqli del`ta va undagi qayirlar madaniy landshafti.

V. Tomdi-Quljuqtog` tabiiy-geografik rayoni.

O`z ichiga Tomditog`, Amunzatog`, Quljuqtog`, Beltog`larni va ular orasidagi prolyuvial tekisliklarni hamda botiqlarni oladi.

Rayon iqlim ko`rsatkichlari jihatidan Janubiy Qizilqumga yaqin. Lekin undan qishning nisbatan bir oz iliqligi (yanvarning o`rtacha harorati $-4,1^{\circ}$) va vegetatsiyali qishning ba`zan sodir, (16% dan oshmaydi) bo`lib turishligi, yog`inning nisbatan (yillik miqdori 208 mm) ko`pligi jihatidan farqlanadi.

Rayon o`z navbatida quyidagi landshaftlarga bo`linadi:

1. Tomditog`, Amunzatog`, Quljuqtog` va Beltog`da joylashgan shuvoq o`suvchi sur-qo`ng`ir tuproqli past tog`lar landshafti.
2. Shuvoq qoplangan sur-qo`ng`ir tuproqli tog` oldi prolyuvial tekisliklar landshafti.
3. Mezokaynazoy negizli sarsazan o`suvchi sho`rxoklardan iborat bo`lgan berk botiqlar landshafti. Bunga Qoraxotin va Oyoqog`itma botiqlari kiradi.

O`zbekistonning toshloq cho'llari Ustyurt platosida va qizilqumdagি qoldiq Tog`lar atrofida joylashgan. Toshloq cho'llarda o'simliklar siyrak o'sib, turlari ham kam. Asosiy o'simliklari burgan, qora boyalich, shuvoq, partak, singren, saqan, keyrevuq, seta, isiriq kabilardir. Baqorda esa efemerlar qoplab oladi. Ustyurt platosida yuqorida qayd qilingan o'simliklardan tashqari saksovul va tatar rovvochi ham uchraydi.

4. Cho'l mintaqasida yana sho'rxok va taqir erlar uchraydi. Sho'rxoklar odatda grunt suvi er betiga yaqin bo`lgan botiqlarda, eski daryo qayirlarida, do`ng qumlar orasidagi chuqur joylarda vujudga kelib, o'simliklar juda kam o'sadi. Sho'rxoklarda o'sadigan o'simliklar formatsiyasini galofitlar deyilib, ular go'shtdor, tanasida oppoq tuzi bo`lgan o'simliklardir. Bunday o'simliklar turkumiga boyalich, tereskan, keyrevuq, burgan, sarisazan[^] qorasho'ra, baliqko'z, sho'r ajriq, qora saksovul, yulqun, itsiygak kabilar kiradi. Bu o'simliklar ichida qora saksovul uzoq yil (50 yilgacha) yashaydi va bo`yi 12 metrgacha etadi. qora saksovul 25 yil o'sib, rivojlanib borib, so'ngra u astasekin quriy boshlaydi. qora

saksovulning tanasi oqir bo'lib, suvda cho'kadi. Undan yoqilqi sifatida foydalaniladi.

5. Taqirlar tarqalgan erlarda o'simlik deyarli o'smaydi. Faqat taqir yoriqlarida va atrofida siyrak holda sho'ra o'simliklari uchraydi.

6. O'zbekiston cho'l mintaqasidagi daryo vodiylarida to'qay o'simliklari ham mavjud. Ularning eng muqimlari qizilmiya (solodko), chuchukmiya, ajriq, yanTog', hamish, savaqich, qo'qa, kendir, turonqil, tol, jiyda, yulqin, jinqil, daraxt va butalarga chirmashvb o'suvchi ilonpechak, qo'ypechaklardir. To'qaylarda yana chakanda (oblepixa) ham uchrashi mumkin.

7. Cho'l mintaqasining lyossli jinslar tarqalgan qismida va Tog' oldi tekisliklarida efemer, efemeroi va boshqa o't o'simliklari hamda chala butasimon shuvoq kabilar o'sadi. Bu joylarda seryomqir baqor faslida avval efemerlar iza efemeroiqlar zikh o'sib, cho'lga chiroyli manzara beradi. Bu faslda qorabosh (rang), qo'nqirbosh, boychechak, binafsha, lolaqizqaldoq, chuchmoma kabilar barq urib o'sib, cho'l yashilqizqish tusga kiradi. Bularidan tashqari yana sassiqquvray, lola, gulsapsar, piyoz ildizlilar, ayiqtovon, mingboshi, chalav, shuvoq, astragal, darmana,. ba'zan isiriq, (garmala) kabilar ham uchraydi.

8. Adir balandlik mintaqasi o'z ichiga absolyut balandligi 400—500 metrdan 1200 metrgacha, ayrim joylarda esa 1500—1600metrgacha bo'lган erlarni oladi. Relefning balandlashuvi tufayli yog'in miqdori ortadi, yozgi qarorat esa cho'lga nisbatan pastroq bo'lib, tipik va to'q bo'z tuproq keng tarqalgan. Bular o'z navbatida adirda qar xil o'tlarni zikh va baland bo'lib o'sishiga sababchi bo'lган. Lekin o'rqirdan iborat bo'lганadirning quyi qismi daryo, soy va vaqtli suvlar bilan parchalab yuborilq gan bo'lsa, yuqori qismida esa ba'zi Tog' yonbag'irlari nisbatan tik :bo'lib, ona jinslar ochilib qolgan. Binobarin, adirda o'simliklar qoplami yoppasiga tutash bo'lmay, ona jinslar ochilib qolgan tik yonbag'irlarda, oqar va vaqtli suvlar yuvib ketgan joylarda uzilib qolgan.

Umuman olganda adir mintaqasida cho'lga nisbatan o'simlik turlari ko'p bo'lib, qalin o'sadi. 1 km² maydonda 15—20 turga mansub bo'lган 30 ming individ uchraydi. Adir o'simliklarini asosini efemer va efemeroiqlar, ko'p yillik

qar xil o'tlar, butalar tashkil etadi. Adirda efemer va efemeroit o'simliklaridan rang, qo'nqirbosh, yaltirbosh, no'xatak, chuchmoma, lola, oqquvray, gulxayri, sasir, qoqi kabilar qalin o'sib, iyul oyigacha agetatsiyasini davom ettiradi. Bulardan tashqari yana shuvoq, yovvoyi buqdoj (qasmaloq), taktak (yovvoyi arpa), jasmin, cho'l yalpiz, ferul, chalov, mingbosh, achchiq.miya, otquloq, ermon, zubturum (bargizub), qoziquloq, karrak, qiltiq, yersovun, (yetmak), shirach kabi o'simliklar ham o'sadi. Adirning yuqori qismida toshdoqli erlarda astragal, akantolimon, chiya, soylarda zirk, qo'shyaproq, na'matak kabi butalar; do'lana, bodomcha, pista kabi daraxtlar, ariq bo'ylarida yalpiz, qirqbo'qim ham uchraydi. Daryo vodiylarida esa tol, terak mavjud.

O'zbekistonning cho'l va adir mintaqalaridagi vohalarida qayroqoch, sada (sadaqayraqoch), majnuntol, tol, terak, chinor kabi manzarali daraxtlar o'sadi.

9. Tog' balandlik mintaqasi. O'zbekiston qududida 1200 mdan (ayrim joylarda 1500—1600 mdan) 2700—3000 m gacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. Bu balandliklarda relef murak.kab bo'lib, tog' tizmalari orasida vodiylar mavjud. Tog'larning shimoliy yonbaqri bilan quyoshga qaragan janubiy yonbaqri orasida tafovutlar katta. Janubiy yonbag'rida nurash tufayli vujudga kelgan shag'al va qurumlar ko'p. Iqlimi xususiyatlar ham relefga boqliq holda o'zgaradi: yog'in miqdori ortadi, yozda qarorat pasayadi, yog'in lar ko'proq tog'larning g'arbiy, shimoli-g'arbiy yonbag'irlariga tushadi. Bular o'z navbatida tuproq qoplamiga ta'sir etadi. Tog'larning qurg'oqchil qismida jigarrang, aksincha nam qismida esa qo'nqir tog' o'rmon tuproqlari uchraydi. Tog' mintaqasida tabiiy sharoitning hamma qismida bir xil bo'lmasligi uning o'simlik qoplaming joylashishiga ham ta'sir etgan. Tog' balandlik mintaqasida joyning kompleks tabiiy sharoitiga bog'liq holda o'simlikning bir necha turlari mavjud. Tog'larning nam shimoliy va shimoli-g'arbiy yonbag'irlarida mezofit, aksincha janubiy, nisbatan quruq yonbag'irlarida kserofit o'simliklar uchrasa, zaxkash botiqlarda, yog'in ko'proq tushadigan tog' yonbag'irlarida bargli o'rmonlar va har xil butalar o'sadi.

Tog' balandlik mintaqasining quyi qismida ko'proq o'tloq o'simliklar, xususan, bug'doyaq, kovrak, shiracheremurus, oqso'xta ko'kcho'p (iofarak),

gulxayri, lolalar, anjabir, arslanquyruq,, erchoy, binafsha, taktak (tog' arpa), tariqbosh (cho'chqa yoli), qiltiq, qasmaldaq, tulkiquyruq, chayir, yalpiz, shuvoq, chalov kabilar o'sadi.

Tog' mintaqasining nisbatan qurqoqchil qismida tog' saqiz, qizil tikanak (akantolimon), astragal, tog' yalliz, betaga, chalov, shuvoq kabi o'tlar uchraydi.

Tog' balandlik mintaqasida daraxtlardan archazorlar keng maydonni egallaydi. Archazorlar asosan 3000 m balandlikkacha bo'lgan joylarda ko'proq uchraydi. Ma'lumotlarga ko'ra Respublikada archazorlarning maydoni 500 ming gektardir. O'zbekiston tog' mintaqasida, ayniqsa uning Oloy Turkiston va Zarafshon Hisor tizmalarida archaning quyidagi uch turi Zarafshon (o'rikarcha) archasi, yarimsharsimon (saurarcha) va Turkiston (qora archa) archasi o'sadi. Zarafshon archasi ko'proq 1200—2200 metr balandliklarda, yarimsharsimon archasi 1800—2700 metr balandliklarda, Turkiston archasi esa 2600—3000 metr balandliklarda o'sadi. Archazorlar ko'proq nisbatan qurg'oqchil va toshloq yerlarda uchraydi va astasekin o'sib, bo'yi 20 metrgacha etib, ming yildan ortiq yashaydi. Archazorlar tagida esa qar xil o'tlar va butalar uchraydi.

O'zbekiston Tog'larining namearchilik ko'proq bo'ladigan tog'larida, xususan g'arbiy Tyanshan tog' tizimiga kiruvchi tog'larda, Farqona tizmasida bargli o'rmonlar keng tarqalgan. Bargli o'rmonlar ichida eng ko'p tarqalgan paleogonneogen davridan qolgan relekt o'simliklar yong'oqzorlardir. Yong'oqzorlar bilan birga zarang, yovvoyi olma, bodom, o'rik, tog'olcha, do'lana, terak,. Turkiston qayini kabilar, toshloq yerlarda temir daraxt ham o'sadi.

Tog' balandlik mintaqasida butalardan uchqat, na'matak,, irqay, zirk, maymunjon, yovvoyi uzum, qatranqi kabilar mavjud. Tog'larida (ayniqsa, Bobotog', Boysun tog'ida) pistazorlar, Hisor tog'larida esa yovvoyi anor va anjir kabi quruq subtropik o'simliklar o'sadi.

Tog' balandlik mintaqasida yana tog' piyozi, anzur piyoz, zira,, rovoch, taran, tuyayaproq, tog' jambuli, kiyik o'ti, tog'saqiz (tarkibida kauchuk moddasi bor) kabi foydali va dorivor o'simliklar ham uchraydi.

Yaylov balandlik mintaqasida subalp va alp o'tloqlari mavjud.

Mintaqaning quyi tog' mintaqasiga tutashgan qismida pakana archalar va subalp o'tloqlari uchraydi. Subalp o'tloqlari tog' mintaqasi o'tloqlaridan bo'yи 'birmuncha pastligi bilan farqlanadi. Subalp o'tloqlari nisbatan tuproq yaxshi rivojlangan, namgarchilik joylarda vujudga kelib, qo'nqirbosh, mushukquyruq, yovvoyi arpa, yovvoyi suli, qo'ziquloq, oq momiq, taran saosiqquvray, pushti, qo'qongul, bir oz qurg'oqchil joylarda chayir, shuvoq, betaga, tikonli astragal butasi o'sadi.

Yaylov balandlik mintaqasining yuqori qismida (3500 m. dan yuqorida) alp o'tloqlari uchraydi. Alp o'tloqlari subalp o'tloqdaridan past bo'lib, yer bag'irlab o'sishligi bilan farqlanadi. Namgarchilik bo'lgan yerlarda to'nqizsirt (kobreziya) o'tining bir necha turlari, gunafsha, qoqio't, yulduzo't, sariq ayiqtovon, yovvoyi ko'knori kabilar o'sadi. qurqoqchil, toshloq yerlarda qiziltikon, toshyorar, astragal kabi o'simliklar uchraydi.

Yaylov balandlik mintaqasining eng baland qismida doimiy qor va muzliklar hamda qoyalar mavjud bo'lgan qismini esa nival mintaqacha ishqol qilib, o'simlik deyarli uchramaydi.. Faqat qoyalar orasidagi pastham joylarda astragal, toshyorar kabi usimliklar o'sadi, xolos.

II.2. O`ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI KURSIDA QIZILQUM TABIIY GEOGRAFIK O`LKASINI O`RGANISH

Sana:_____

Sinf: 7

Fan: O'zbekiston tabiiy geografiyasi.

Darsaning mavzusi: Qizilqum.

Dars maqsadi:

Ta'limiy:- O`quvchilardagi O'zbekiston tabiatiga oid bilim va ko`nikmalarni oshirish, tabiiy-geografik o'lkaningning geografik o`rni va foydali qazilmalari, relyefi, iqlimiga oid egallangan bilimlarni rivojlantirish.

Tarbiyaviy: - o`quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, olgan bilimlarini hayot

bilan bog`lay olishni, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, estetik did, axloqiy sifatlarni, kasb-hunarga bo`lgan qiziqishlarini tarkib toptirish. Tabiatga mehr va muhabbat uyg`otish asosida ekologik tushunchalarni kengaytirish.

Rivojlantiruvchi:- o`quvchilarning O`zbekiston tabiiy geografiyasididan olgan bilimlarini mustahkamlash va geografiya faniga ularni yanada qiziqtirish. Mustaqil ishlash va u orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o`rgatish, nutqni o`stirish.

Dars o`tish metodi: noan'anaviy.

Dars o`tish usullari: musobaqa, o`yin, muloqot.

Dars jahozi: Dunyoning tabiiy geografik xaritasi, globus, O`zbekistonning tabiiy, iqlim, tabiiy geografik o`lkalari xaritalari, jadvallar, yozuvsız xarita, 7-sinf atlasi va kompyuter va multimedya.

Atama va tayanch tushunchalar: geografik joylashishi,relyefi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism: Psixologik iqlim yaratish - 3 минут

II. Yangi mavzuning bayoni - 20 минут

III. Mustahkamlash va guruhlarda ishlash - 11 минут

IV. Xulosalash - 3 минут

V. Uy topshirig'i - 2 минут

I. Tashkiliy qism. Sinf davomadini aniqlash, psixologik muhit yaratish.

O'quvchilar: Assalomu Alaykum, ustoz!

O'qituvchi: Salom dono aziz o'quvchilar,

Mujizalar olamining oshnolar

Bugun sizla uchrashmoq uchun,

Kelishgandir aziz ustozlar,

Dars shoirin tinglab asta,

O'tamiz so'ng maqsadga,

Navbatchining axborotin,

Tinglagaymiz bir pasda.

Shiorimiz:

Fanlar ko'p turli – tuman,
Shuni aytish joizdir,
O'quv dasturida Geografiya,
Ikki yarim foizdir.
Ona tili-adabiyot, tarixu
hisob-kitob
Kerak bizga geografiya,
Udir fanlar ichra shox.

Dars avvalida salomlashib,o`quvchilar davomadi aniqlanadi. O`quvchilar bugungi kun ob-havosi va atrof-muhitdagi tabiiy geografik o`zgarishlarga sharh beradilar.

2. Asosiy qism:

Guruhash: o`quvchilar emblemalar orqali 3 guruhga bo`linadi: “Qizilqum”, “Zarafshon” , “Farg’ona” guruhlari. O`quvchilar emblemalarini o`qib, tegishli guruhlarga borib o`tiradilar.

Darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtirish:

Qoidalar ishlab chiqiladi:

OLTIN QOIDALAR

- 1.Intizom.
- 2.O`zaro hurmat.
- 3.Faollik.
- 4.Vaqtga roiya qilish.
- 5.Asosiy va mantiqiy fukr bildirish.
- 6.Fikrni takrorlamaslik.
- 7.O`ng qo`l ko`tarish qoidasi.
- 8.To`g`ri javob uchun rag`bat.

Milliy istiqlolimizning bosh maqsadi:

“Obod va ozod Vatan – erkin va farovon hayot qurish” Navbatchining axborotini tinglash.

O’qituvchi: O’quvchilar bugungi darsimizda sinfni uch guruhga bo’lganmiz. 1-guruh Everest, 2-guruh Atlantika, 3-guruhimizni Osiyo deb nomladik. Bugungi darsimizda faol qatnashgan o’quvchi va guruhnii «oltin,kumush,bronza» medallari bilan taqdirlaymiz. Sizlarga ma’lumki bunday medallar sportchilarga beriladi. O’zbekistonda kimlar oltin medal bilan mukofotlandi..

O’quvchi javobi, o’qituvchi izohi.

O’qituvchi: O’tgan darsda qanday mavzu bilan tanishib o’tgan edik.

O’quvchi: o’tgan mavzu Surxondaryo tabiiy geografik o’lkasi tuproqlari, o’simlik va hayvonot dunyosi.

Oqituvchi o’tilgan mavzu yuzasidan savollar berib o’tgan mavzu mustahkamlanadi:

1. Qashqadaryo geografik o`rnining o`ziga xos hususiyatlari nimalardan iborat?
- 2.Qashqadaryo iqlimini vujudga keltiruvchi qanday omillarni bilasiz?
- 3.Qashqadaryo o`lkasida nima sababdan tuproq va o’simliklar xilma-xil?
- 4.Surxondaryo geografik o`rnining o`ziga xos hususiyati nimada?
- 5.Surxondaryo o`lkasida tuproq va o’simlik turlari nima uchun tekislikdan tog’ga tomon o’zgaradi?
6. O’lkaning hayvonot dunyosini tasvirlang?
7. O’lka tabiatini ifloslovchi manbalar nimalardan iborat?
8. Surxondaryo qo’riqxonasi nima maqsadda tashkil etilgan?

Qisqa savol javobdan so’ng sinf kichik guruhlarga bo’linadi.

Guruhlarda ishslash:

Guruhlarga 1-topshiriq beriladi.

Qizilqum (1-guruh)ga “Farg’ona vodiysi”, Zarafshon (2-guruh)ga “Zarafshon”, Farg’ona (3-guruh)ga “Qashqadaryo” mavzulari beriladi.

Demak, har bir guruh o`z nomidan kelib chiqqan holda berilgan mavzuni

yoritib berishlari kerak.

Har bir guruhdan bittadan o`quvchi chiqib mavzuni hikoya qiladi.

2-shart. O'tilgan mavzular bo'yicha O'zbekistondagi tabiiy geografik o'lklalarining iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosidagi farqlarni aytib berishlari lozim.

O`qituvchi tomonidan kompyuter va multimedia texnikasi orqali O'zbekiston iqlimiga oid lavhalar namoyish qilinadi.

3-shart bo'yicha har bir guruh o'zidan keyingi guruhgaga "Uchinchisi ortiqcha" o`yinini yozib beradi. Keyingi guruh O'zbekistonga tegishli bo`lmagan hududni topishi kerak.

Masalan:

1.Sangzor 2.Ohangaron 3. Chu

O`qituvchi yuqoridagi uchta shartlar bo'yicha darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.


O`qituvchi yangi mavzuni kompyuter texnikasi va multimediyadan foydalangan holda tushntiradi.

Qizilqum

Qizilqum tabiiy geografik o'lkasiga O'rta Osiyodagi eng katta cho'llardan biri Qizilqumning O'zbekistonga qarashli g'arbiy qismi kiradi. Qizilqum cho'lining shimoliy va sharqiy qismlari, bizga qo'shni Qozog'iston Respublikasi hududidadir. Shu sababli O'rta Osiyo tekislik qismining deyarli o'rtasida joylashgan.

Qizilqum tabiiy o'lkasining shimoliy chegarasi Qozog'iston chegarasidan o'tadi. Bu o'lka sharqda Mirzacho'l, janubi - sharqda Zarafshon tabiiy o'lkalari bilan chegaralanadi. Janubi - g'arbiy chegarasi Turkmaniston chegarasidan o'tadi. Qizilqum o'lkasining O'rta Osiyo tekisliklari markazida bunday joylashganligi unda haqiqiy cho'l landshaftlari tarqalishiga sabab bo'lgan.

2 – karta. Qizilqum tabiiy-geografik o’lkasining tabiiy kartasi 7-sinf atlasi




Qizilqum Yer yuzasi tuzilishi jihatdan janubi-sharqdan shimoli-g’arbga qarab pasayib boradi. Uning o’rtacha mutlaq balandligi 200-300 m bo’lsa, janubi sharqida 350-400 m, shimoli g’arbida esa 100 m ga tushib qoladi. Eng past yeri o’lkaning markaziy qismidagi Mingbuloq botig’i hisoblanib, dengiz sathidan 12 m past. Eng baland qismi Tomditog’ning Oqtog’ cho’qqisi bo’lib, balandligi 922 m.

Yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari

Qizilqum Turon plitasida joylashgan. Plita zamini paleozoy qattiq (kristall slanes, ohaktosh, granit) jinslaridan tashkil topgan bo’lib, ustini so’nggi davr qalin (qumtosh, mergel, gil, qum) jinslari qoplab olgan.

Qizilqum o’lkasida oltin (Buruntog’, Ko’kpatas), uran (Uchquduq), gaz (Gazli, Toshquduq, Xo’jaqazg’on), oltingugurt, simob, grafit, fosfor, asbest, korund, mis, feruza, binokorlik materiallari konlari mavjud.

3– karta. Qizilqum tabiiy-geografik o’lkasining orografiq kartasi 7-sinf atlasi



Qizilqumning markaziy qismlarida past tog’lar joylashgan. Ularning eng muhimlari Quljuqtog’ (764 m), Yetimtog’ (568 m), Tomditog’ (922m), Ovminzatog’ (635 m), Sulton Uvays tog’i (473m), Bu tog’lar orasida esa uzunligi 150 km, eni 3-5 km ga yetadigan Mingbuloq, Qoraxotin, Mullali, Oyoqog’itma kabi botiqlar joylashgan. Bu botiqlarda sho’rxoklar, taqirlar, qumlar mavjud. Qizilqumning ko’pchilik qismini mutlaq balandligi 200 m atrofida bo’lgan qumli tekisliklar ishg’ol qiladi.

1-rasm. Qizilqum quruqlikka aylangach, shamol jinslari harakatga keltirib, qum rel'yef shakllariini – barxanlar, dong qumlar, qum juyaklarini hosil qilgan

www.google.ru



2-rasm. Barxanlar

www.google.ru



3-rasm. Oqbaytal ovuli
www.google.ru



4-rasm. Shamol ta'sirida hosil bo'lgan qum yuzasi
www.google.ru



5-rasm. Sho'rlangan yer yuzasi
www.google.ru



6-rasm. Mashiquduq
www.google.ru



7-rasm. Mashiquduqda yer osti suvlari ta'sirida hosil bo'lgan ko'l
www.google.ru




Iqlimi

Qizilqum iqlimi kontinental iqlim bo'lib, qishi sovuq, yozi issiq, quruq, seroftobdir.

Qizilqumning shimoliy qismi ochiq bo'lганligi tufayli Arktika va Sibir sovuq va quruq havo massasi tez-tez ta'sir etib turadi. Natijada qishda o'lka sovib ketib, izg'irinli sovuqlar vujudga keladi. O'sha vaqtarda harorat -31-35 C gacha pasayadi. Lekin g'arbdan esuvchi nisbatan iliq va nam havo massasining kirib kelishi natijasida harorat ko'tarilib, yog'in yog'adi.

Qizilqumda yanvarning o'rtacha harorati shimoliy qismida -5-10 C, o'rta qismida -2-4 C, janubida esa -1-2 C.


4 – karta. Qizilqum tabiiy-geografik o’lkasining haroratining Orta Osiyo kartasida tasvirlanishi 7-sinf atlasi




O’lka hududida yoz jazirama issiq, quruq, havosi ochiq bo’lib, iyulning o’rtacha harorati markaziy va janubiy qismlarida +26+28 C. Eng issiq harorat +46 C ga yetadi. Lekin qumlar yuzasi +75+80 C gacha qizib ketadi.

Qizilqumda yog’in juda kam tushib, yillik yog’in miqdori 75-100mm atrofida bo’ladi. Yog’innig asosiy qismi bahorda (yillik yog’inning 48 foizi) va qishda (30 foiz) tushadi. Lekin mumkin bo’lgan bug’lanish 1000-1500 mm ga yetadi.


**5 – karta. Qizilqum tabiiy-geografik o’lkasinida yog’in-sochinning Orta Osiyo kartasida tasvirlanishi
7-sinf atlasi**



**6 – karta. Qizilqum tabiiy-geografik o’lkasinida havo bosimining Orta Osiyo kartasida tasvirlanishi
7-sinf atlasi**



7 – karta. Qizilqum tabiiy-geografik o’lkasinida tuproqlarining Orta Osiyo kartasida tasvirlanishi 7-sinf atlasi



O’simliklari

Qizilqumda 600 dan ortiq o’simlik turlari mavjud. Ular ichida keng tarqalganlari bahorda o’suvchi efemer va efemeroitlar – rang, qo’ng’irbosh, yaltirbosh, lola, boychechak, chuchmoma, kavrak. Yozning boshlanishi bilan ular sarg’ayib qoladi. So’ngra qurg’oqchilikka va sho’rxok yerkarda moslashgan o’simliklar o’saveradi.

O’lkaning mustahkamlangan qumliklarida juzg’un, oq saksovul, quyonsuyak, qum akatsiyasi, qandim, selen kabi o’simliklar o’sadi. Sur-qo’ng’ir tuproqli yerlarda shuvoq, burjan, toshburjan kabilari tarqalgan.

O’lkaning sho’rxok,-botqoq yerlarida qorasaksovul, yulg’un, baliqko’z, sarisazan, taqirlarda donasho’r o’sadi. Amudaryo sohillarida to’qayzorlar bor.


8 – karta. Qizilqum tabiiy-geografik o’lkasinida o’simliklarining O’rta Osiyo kartasida tasvirlanishi



Hayvonları

Qizilqumning qumli cho'llarida yumronqozoqlar, qum sichqoni, shalpanquloq, qo'shoyoq, kaltakesak, echkemar, o'qilon, qum bug'ma iloni, charxilon yashaydi.

Sut emizuvchilardan cho'l mushugi, jayron, xongul, saygoq, bo'ri, tulki, quyon, chigirtkalar bor. Amudaryo sohilidagi to'qaylarda to'ng'iz, qirg'ovul, qizil g'oz, xongul kabi hayvonlar yashaydi.



Sudralib yuruvchi hayvonlar.

1) Kulvor ilon. 2) Agama 3) Echkemar 4) Ko'zoynakli ilon. 5) Taqirko'z

Darsni mustahkamlash:

O'qituvchi yangi mavzu yuzasida o'quvchilarga savollar berib yangi mavzuni mustahkamlaydi.

1. Qizilqumning yer ustida qanday rel'yef shakllari bor?
2. Nima uchun Qizilqumning shimoli bilan janubiy qismi orasida qishki va yozgi harorat orasida farq mavjud?
3. Qizilqumda nima uchun doimiy oqar suvlar yo'q?
4. Nima uchun o'lkada har xil tuproq turlari tarqalgan?

O'qituvchi: Darsimiz davomida savol javobga qatnashgan topshiriqlarni bajargan, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarga

3 baho

4 baho

5 baho

Baholar kartochkalari berib boriladi va dars oxirida jurnalga baholar

tushuriladi. Faol qatnashgan guruhga rag'batlantirish beriladi.

Uyga vazifa:

Qizilqum tabiiy geografik o'lkasi kartasini yozuvsiz kartaga tushirish.

XULOSA

Qizilqum okrugida, ayniqsa, paleozoy qoldiq tog`larida oltin, slyuda, feruza, asbest, boksit, simob, grafit, vol`fram, tal`k granat, yashma, island shpati kabi qazilma boyliklar, tekislik qismida esa gaz, neft`, uran, oltingugurt konlari mavjud.

Qizilqum okrugida foydali qazilmalar qazib olinayotgan va qazishga tavsiya qilingan konlarni o`zlashtirish asosida oltin, uran, qurilish xom ashyolari, keyinchalik mis, boksit, strontsiy konlarini o`zlashtirish asosida Zarafshon, Uchquduq, Tomdibuloq, Ko`kpatos ishlab chiqarish tarmoqlari, granit, oltin, bo`yoqbob minerallar, qurilish xom ashyolarini o`zlashtirish negizida Tasqazg`on ishlab chiqarish shoxobchasi, tabiiy gazlarni o`zlashtirish negizida esa Gazli ishlab chiqarish tarmog`i vujudga kelgan.

Qizilqum okrugi katta hududni egallagani uchun uning iqlimi xususiyatlari shimoldan janubga qarab o`zgarib boradi. Qizilqumning shimoliy qismi iqlimi asosan Markaziy Osiyo antitsikloni va g`arbdan keladigan tsiklonlar ta`sirida vujudga kelsa, janubiy qismi iqlimining shakllanishida tropik havo massalarining ta`siri ancha kattadir. Shuning uchun Qizilqum okrugining qishi sovuq, davomli bulib, yanvarning o`rtacha harorati shimolida $-4 -10^{\circ}$ bo`lsa, janubida $-1-2^{\circ}$ bo`ladi. Qizilqum okrugining iqlimi xususiyati jihatidan farqlanuvchi shimoliy qismi bilan janubiy qismi orasidagi chegara taxminan 41° shimoliy kenglik yoki -3° yanvar izotermasi orqali o`tadi.

Qizilqum okrugidagi Amudaryo sohillarida joylashgan to`qay landshafti va u erdag'i o`simlik hamda hayvonlarni (xongul, jayron, to`ng`iz, qirg`ovul, o`rdak g`oz va bosh.) muxofaza qilish uchun Qizilqum qo`riqxonasi tashkil etilgan.

Qizilqum okrugi tabiiy boyliklarga serob hudud xisoblanadi. Eng muhim boyligi mineral resurslari (oltin, uran, gaz, fosforit, korund, grafit)dir. Bundan tashqari okrugda iqlim, resurslari, yaylov-o`tloqlari, yer osti suvlari, mo`yna beruvchi hayvonlari xam mavjud bo`lib, ular yurt boyligidir.

- Qizilqum okrugi o`z navbatida L.N.Babushkin, N.A.Kogay (1964) ning rayonlashtirish tizimi bo`yicha Sultonvays, Shimoliy Qizilqum, Bo`kan-Yetimtog`, Janubiy Qizilqum, Tomdi-Kuljiqtog` kabi tabiiy-geografik rayonlarga bo`linadi. Qizilqum tabiiy geografik o`lkasi tabiiy resurslari, ularning holati, bir-biriga bog`liqligi, tabiiy boyliklari, ulardan oqilona foydalanib, muhofaza ostiga olish haqida bilim berish bilan birga O`zbekiston tabiatidagi tafovutlarni tushuntirish.

1. Qizilqum tabiiy geografik o`lkasi yer usti tuzilishining xilma-xilligi, geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi, tektonikasi hamda uning tabiatning boshqa unerlariga ta`sirini o`rganish;
2. Qizilqum tabiiy geografik o`lkasi rel`efning asosiy turlari, ularning genetik kelib chiqishi hamda rel`efning shakllanishida ernen tashqi dinamik jarayonlarini ishtirokini aniqlash;
3. Qizilqum tabiiy geografik o`lkasining iqlimi xususiyatlari, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim unusurlari (harorat, yog`in, namlik, shamol) ning hududiy taqsimlanishi va ichki suvlari, ularning gidrologik xususiyatlarin o`rganish va tahlil qilish;
4. Qizilqum tabiiy geografik o`lkasi tuproq, o`simlik va hayvonot dunyosi, ularning turlari va tarqalishini o`rganish;
5. Qizilqum tabiiy geografik o`lkasi tabiatni va tabiiy resurslarining holati, ularga ta`sir etuvchi omillar, ulardan oqilona foydalanib, muhofaza ostiga olishga qaratilgan chora tadbirlarni aniqlash va o`rganish;

HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI VA FAVQULOTDA VAZIYATLARDA FUQAROLARNI MUHOFAZA QILISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 19.07.2011 y. №208 sonli «Aholini yer qimirlashlar oqibatida paydo bo`ladigan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen turdag'i) harakat qilishga tayyorlash kompleks dasturida tasdiqlash haqida»gi qarori, Yuqori va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 22.07.2011 y. №310 sonli buyrug`ini qo`lga olinib va o`rinlash maqsadida Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti rektorati buyrug`i (25.12.2012 y. №601 D/1) asosida «Hayot xavfsizligi» fani barcha ta`lim yo`nalishlari bo`yicha talabalarga oquv jarayonida o`rgatish uchun, magistrlik dissertatsiya ishi va bakalavr mutaxassislik bitiruv ishlarini bajarishda fanning huquqiy asoslari kiritildi.

“Jamiyatda fuqarolarning huquqlari va erinliklarini himoya qilish ta'minlanganda u chinakam huquqiy fuqarolik jamiyati bo'ladi. Har bir kishi o'z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi, o'z huquqi va erkinliklarini himoya qila olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur” (İ. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, 31 – bet).

XX asrning 60 – yillaridan boshlab faoliyat ko'rsatib kelgan fuqaro mudofaasi tizimining asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg'in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida xalq xo'jaligi ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash hamda halokat o'choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o'z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi.

Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg'in qurollari emas, balki boshqa xavf – xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish aslo mumkin emas. Bular turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardir.

90 – yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo'yildi, yangi – yangi zamonaviy qurol turlari kashf qilindiki,

ular odamlar uchun xavfli bo'lmay, balki iqtisodiyot ob'ektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bular hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o'rnida yangi bir tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi.

Fuqaro mudofaasi o'rnini bosishi mumkin bo'lgan yirik ko'lAMDAGI favqulodda vaziyatlarga avvaldan tayyorgarlikni ta'minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egallishi, u tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishi lozim edi. Bu tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o'tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni: tabiiy ofatlardan xavfli hududlar xaritalarini tuzish, seysmik mustahkam bino va inshootlarni qurish, qisqa, o'rtaligida muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi va aholi tayyorligini amalga oshirishi lozim edi.

Shu o'rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to'g'ri keladi. Favqulodda vaziyatning o'zi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko'zda tutishimiz lozim?

Favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoitini izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y – harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergen taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergen zonalarni halqaga olib, xavfli omillar tasirini

tugatishga qaratilgan avariya – qutqaruv ishlari va kechiktirib bo’lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo’yilgan dadil qadamlardan biri – avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so’ngra esa shu boshqarma negizida **O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagি PF – 1378 Farmoni** bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo’ldi.

Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so’ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining huquqiy asosini tashkil etuvchi bir qator qonuni va qarorlar qabul qilindi.

O’zbekiston Respublikasi qonunlari:

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to’g’risida (1999 yil 20 avgust) – 5 bo’lim va 27 moddadan iborat. Qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro’y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo’yadi.

Fuqaro muhofazasi to’g’risida (2000 yil 26 may) – 4 ta bo’lim va 23 moddadan iborat. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning oldini olish to’g’risida (1999 yil 19 avgust) – 13 modda. Qonunda OİTS/OİV kasalligining oldini olish sohasidagi davlat ta’mnoti, kasallikning oldini olish bo’yicha faoliyatni moliyalash, fuqarolarning huquq va majburiyatlariga doir masalalar yoritilgan.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to’g’risida (1999 yil 20 avgust) –

15 modda. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 28 modda. Ushbu qonunning maqsadi qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishni ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish vositalarining insonli sog'lig'iga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirining oldini olish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 5 bo'lim va 28 moddadan iborat. Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol – mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida (2000 yil 15 dekabr) – 6 bo'lim va 31 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonuning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida (2006 yil 28 sentyabr) – 23 modda. Qonunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (1997-yil 27-dekabr) №558-sonli qarori «O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldin olish va ularda harakat etishda davlat tizimi haqida»gi qarori bilan be`kor etilib bu qaror qaytadan 2011 yil 24 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №242-sonli «O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda harakat etishdan davlat tizimi ishlarini bundan

buyon takomillashtirish» haqida qarori bilan to`liqtirilib qayta chiqdi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (2011 yil 19 iyul) №208-sonli qarori «Aholini yer qimirlashlar natijasida paydo bo`lishi mumkun bo`lgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen) harakat etishga o`rgatishning kompleks dasturini tasdiqlash» haqida qarori asosida barcha o`rinlarda favqulodda vaziyatlarda harakat etishning kompleks dasturlari ishlab shiqilib, oquv mashg`ulotlari olib borilmoqta.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori:

Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko`chish va yer ko`chki hodisalari bilan bog`liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora – tadbirlar to`g’risida (2007 yil 19 fevral, PQ – 585 – sonli). Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko`chish va er ko`chki hodisalari bilan bog`liq ishlarni o’z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning ehtimol tutilgan oqibatlarini tezkorlik bilan tugatish maqsadida qabul qilingan.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to`g’risida (1996 yil aprel, 143 – sonli). Qarorga «O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to`g’risida»gi Nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to`g’risida (1997 yil 23 dekabr, 558 – sonli) qarori bilan O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) to`g’risidagi Nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo`yicha funktsiyalari keltirilgan.

O`zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to`g’risida (1998 yil 7 oktyabr 427 – sonli) qaror mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnologen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan.

Qarorga ilova tarzida keltirilgan «Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida (1998 yil 27 oktyabr, 455 – sonli). Qaror bilan tasdiqlangan tasnifga muvofiq favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga ko'ra texnogen, tabiiy va ekologik xususiyatli, Ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar sonliiga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transschegegarali turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora – tadbirlari to'g'risida (1996 yil 18 yanvar, 32 – sonli). Odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora – tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida (2003 yil 13 yanvar, 15 – sonli). O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

Favqulodda vaziyatlarni bashoratlash va oldini olish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida (2007 yil 3 aprel, 71 – sonli). Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy xujjatlar asosida o'quv jaraenida talabalarga “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining barcha yo'nalishlari bo'yicha keng manoda tushunchalar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A.. O'zbekiston XXI asr busag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T:O'zbekiston, 1997.
2. Mirziyoev Sh.M "Taqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundali qoidasi bo`lishi kerak"- T.: O'zbekiston 2017.- 103b
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2102 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi «2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga kutaradigan yil buladi» mavzudagi ma`ruzasini o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma :- Toshkent., Iqtisodiyot- 2012. 282 b.
4. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T. 1996
5. Baratov P. O'rta Osiyo daryolari. O'zFA nashriyoti. T. 1991.
6. Baratov P., Mamatqulov M., Rafikov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T.: O'qituvchi. 2002.
7. Boltaev M.J. MOD iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.2003.
- 8.Gaypova.R; Jiemuratova.G; Gaypov.B. Geografiyani o'qitishda innovatsiyon texnologiyalardan foydalanish usullari (Umum talim o'rta maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan metodik qo'llanma) Nukus Ajiniyaz nomidagi NDPI nashiriysi, 2016 yil
9. Granitov I.P. Rastitel`niy pokrov Yugo-Zapadnix Kizilkumov. t. 1. T: Fan, 1964.
10. Hasanov I.A., G`ulomov P.N. Orta Osiyo tabiiy geografiyasi. T.2003.
11. Карта Мира статистический справочник.М. 2000.
12. Курочкина Л.Я. Псаммофильная растительность пустынь Казахстана. Алма-Ата: Наука, 1978.
12. Maksakovskiy V.P. Экономическая и социальная география мира. М.1990.

14. Новикова Н.М. Принципи сохранения ботанического разнообразия дельтовых равнин Турана. Диссертатсия в форме научного доклада на соискание ученой степени докт. геогр.наук. М.: 1997.
15. O'zbekiston Respublikasi entsiklopediyasi.T.1997.
16. Rafikov A.A. Geoekologik muammolar. T. 1997.
17. Roziev A.R. Markaziy Osiyo davlatlarilari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.Termiz 2000.
18. Roziev A.R., Abirqulov K.A.O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. T. 2001.
19. Raximbekov R.U., Dontsova Z.N. Orta Osiyo tabiatining geografik organilish tarixi. T.1982.
20. Soliev A.S. Problemi rasseleniya i urbanizatsiya v respublikax Sredney Azii. T.1991.
21. Soliev A.S.va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. T.2003.
22. Shul`ts S.S. Analiz noveyshey tektoniki i rel`ef Tyan`-Shanya. M.: Geografgiz, 1948.
23. Qoriev M.V.O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi.T.1968.
24. UzZIYOnet saytlari